

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUSTA‘LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: _____

XAYRULLAYEVA MADINA MIRZAUMAR QIZI

**O‘RTA OSIYO ZARDUSHTIYLIK JAMOALARIDA
AYOLLARGA MUNOSABAT VA GENDER MASALASI**

**70220301 – Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi
bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

t.f.f.d. (PhD) N.M. Ikromov

TERMIZ-2024

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 202__-yil, __-_____dagi № ___- sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar

imzo

PhD N.Ikromov

Kafedra mudiri

imzo

t.f.d. Sh.Shaydullayev

**Magistratura
bo‘limi boshlig‘i**

imzo

Ph.D. D.Abdurahimov

“O‘rta Osiyo zardushtiylik jamoalarida ayollarga munosabat va gender masalasi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: O‘rta Osiyo, zardushtiylik, ayollarga munosabat, gender masalasi, Avesta, Menogi Xerad, Denkard, Bundaxishn, oila, ayollarning ijtimoiy mavqe‘i, nikoh munosabatlari, ayol obrazining ilohiy timsollardagi tajassumi.

Tadqiqot obyektlari: miloddan avvalgi I ming yillikdan – milodiy VIII asrgacha bo‘lgan davrdagi O‘rta Osiyo zardushtiylik jamoalari.

Ishning maqsadi: miloddan avvalgi I ming yillikdan – milodiy VIII asrgacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo aholisining salmoqli qismini tashkil etuvchi zardushtiylik jamoalarida ayollarga munosabat va gender masalasini yozma manbalar asosida tahlil etish va shu asosda ilmiy xulosalarni taklif etish.

Tadqiqot metodlari: qiyosiy-tizimli tahlil, diaxron tahlil, muammoli yondashuv, fanlararo yondashuv.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Avesta matnining lingvistik tahlili orqali to‘y kunidan boshlab er *nmānō-paiti* – “uyning xo‘jayini” deb ataganidek, ayol *nmānō pathni* “uy bekasi” unvonini olishi ularning ma‘naviy va mulkiy munosabatlarda ham tengligini bildirishi aniqlandi;

Zardushtiylikda ulug‘lanib, e‘tiqod obyektiga aylangan Ardivisura Anahita, Asha, Chista, Daena kabi ma‘budalar ayollikning zardushtiylikda ilohiylashtirilganining isboti ekanligi va zardushtiylik panteonida ayollar va erkaklar timsolidagi ilohlar teng taqsimotda ekanligi gender tenglikning ifodasi sifatida asoslandi;

Avesta matnlarida ulug‘lanib, ehtirom bilan tilga olingan 27 nafar ayollarning nomlari aniqlanishi orqali ilk zardushtiylik jamoalari hayotining barcha jabhalarida gender mutanosiblikka amal qilingani ko‘rsatib o‘tildi;

Zardushtiylikda ayollarga oid munosabatlarni ifodalovchi ma'lumotlardagi ziddiyatlar Avesta matnlarining turli zamon va makonda yaratilishi, qayta yig'ilishi, tuzatilishi natijasida shakllangani xronologik va lingvistik dalillar bilan isbotlandi.

Amaliy ahamiyati: tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida O'rta Osiyoda ayollarga munosabat va gender masalasining an'anaviy va o'ziga xos xususiyatlari hamda etnopsixologik jihatlarini o'rganishga oid tadqiqotlarda qo'llanilishi mumkin.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: Dissertatsiyani gender munosabatlarga oid grantlarda qo'llash hamda risola sifatida tijoratlashtirish imkoni mavjud.

Qo'llanish sohasi: oliy o'quv yurtlaridagi tarix va dinshunoslik yo'nalishi talabalari uchun ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, ta'lim jarayonida hamda darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy risolalar yozishda foydalanish mumkin.

ANNOTATION

of dissertation on the theme “Attitude towards women and gender issues in the Zoroastrian communities of Central Asia”

Key words: Central Asia, Zoroastrianism, attitude towards women, gender issue, Avesta, Menogi Kherad, Denkard, Bundahishn, family, social status of women, marital relations, embodiment of the female image in divine symbols.

Objects of study: Central Asian Zoroastrian communities from the 1 st millennium BC. until the 8th century AD.

The purpose of the work: to analyze the attitude towards women and the gender issue in the Zoroastrian communities, which make up a significant part of the population of Central Asia, from the 1st millennium BC. to the 8th century AD, based on written sources, and propose scientific conclusions based on this.

Methods of research: comparative system analysis, diachronic analysis, problematic approach, interdisciplinary approach.

The results obtained and their novelty: Through the linguistic analysis of the Avesta text, it was found that since the wedding day, the husband is called *nmānō-paiti* - "the master of the house", and the woman receives the title of *nmānō pathni* "housewife", which means that they are equal in spiritual and property relations;

Goddesses such as Ardivisura Anahita, Asha, Chista, Daena, who were glorified in Zoroastrianism and became an object of faith, are proof of the deification of femininity in Zoroastrianism, and the fact that female and male deities are equally distributed in the Zoroastrian pantheon was justified as an expression of gender equality;

By identifying the names of 27 women who are glorified and mentioned with respect in the texts of the Avesta, it was shown that gender balance was

followed in all aspects of the life of the early Zoroastrian communities;

Chronological and linguistic evidence has proven that the contradictions in the information representing women's relations in Zoroastrianism were formed as a result of the creation, reassembly, and correction of the Avesta texts in different times and places.

Practical value: on the basis of scientific conclusions and proposals developed as a result of the study, it can be used in studies related to the study of traditional and specific features and ethno-psychological aspects of attitudes towards women and the gender issue in Central Asia. Asia.

Degree of embed and economic efficiency: It is possible to apply the dissertation to grants related to gender relations and to commercialize it as a brochure.

Field of application: it can be used in conducting lectures and seminars for students of history and religious studies in higher educational institutions, in the educational process, and in writing textbooks, teaching-methodical manuals, scientific pamphlets.

MUNDARIJA

KIRISH	6
I- BOB. GENDER TARIXINING AKADEMIK TARIX FANINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA SHAKLLANISHI	12
I.1. Gender tushunchasi va tarixiga oid ilmiy yondashuvlar.....	12
I.2. Gender va din munosabatlariga oid tadqiqotlar (zardushtiylik dini misolida).....	23
II- BOB. AVESTADA AYOL OBRAZI VA UNGA QO‘YILGAN IJTIMOIY-HUQUQIY MEZONLAR	37
II.1. Avestada ayol obrazining ilohiylashtirilishi	38
II.2. Avestada ayollar bilan bog‘liq masalalar.....	48
III- BOB. O‘RTA OSIYONING O‘RTA ASRLAR DAVRIDAGI ZARDUSHTIY JAMOALARIDA AYOLLARGA MUNOSABAT VA GENDER MASALASI	60
III.1. Zardishtiylik jamoalarida ayollarning oila va nikoh bilan bog‘liq huquqlari....	60
III.2. Sug‘d va Baqtriyada nikoh shartnomalari	71
IV. XULOSA.....	80
V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	83

KIRISH.

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. XX asming 70-yillarida “Gender tarixi” yangi yo‘nalish sifatida paydo bo‘ldi va dolzarblik kasb etdi. Gender tarix garchi ikkala jinsga ham bir xilda taaluqli bo‘lsa-da, odatda ko‘proq ayollar tarixi nazarda tutiladi. Gender tarixi jamiyat tarixini jinslarning o‘zaro munosabati va ayni vaqtda jamiyatning moddiy-ma’naviy taraqqiyotida har bir jinsning o‘ziga xos ta’sirini mustaqil tadqiqot ob’ekti sifatida belgilashni talab etadi. Gender masalasi esa barcha dinlarda, jumladan zardushtiylik dinida ham asosiy masalalardan biridir. Avestaning Videvdat kitobida bu masalaga alohida bob (fragardlar) ajratilgani buning yorqin dalilidir. Shu nuqtai nazardan ayollarga bo‘lgan munosabat va gender masalalarining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlarini ilmiy o‘rganish dolzarbdir.

Bugungi kunda dunyoning AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarida gender tadqiqotlar markazlari samarali faoliyat olib bormoqda. 1990-yillardan boshlab ilmiy tadqiqot markazlari gender sohasida doktorlik dasturlarini yuritib kelayotgan bo‘lsa-da, ilk bor rasman gender bo‘yicha doktorlik dasturi 2005-yilda AQSHda tasdiqlangan. Gender ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida davriy va hududiy nuqtai nazardan xilma-xil subyektlar bilan ishlaydi. Shunday eng muhim subyektlardan biri diniy ta’limotlarda gender masalasidir. MDH davlatlarida genderga oid tadqiqotlar asosan XX asrning 90-yillaridan keyin boshlangan. Biroq, dinlar nuqtai nazaridan, xususan, diniy mansublikka asoslangan qadimgi jamiyatlarda gender munosabatlar deyarli o‘rganilmagan.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini kafotlash yuzasidan qator sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so‘ngi yillarda mamlakatni yanada rivojlantirish uchun qanul qilingan Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategilari doirasida har yili qabul qilinayotgan Davlat dasturlarida ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun

hujjatlarini takomillashtirish, ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda aholining gender tenglik to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan ustuvor chora-tadbirlar belgilanib, izchil amalga oshirib kelinmoqda. Jamiyatning gender munosabatlari tarixiy taraqqiyotning vorisiylik qonunlari asosida rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot uchun tanlab olingan O'rta Osiyo zardushtiylik jamoalarida ayollarga munosabat va gender masalasi, uning tarkibiga kirgan qator muhim muammolarning tadqiq etilishi orqali Vatanimiz hududida ayollarga munosabatning tarixiy taraqqiyoti o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021-yilda tasdiqlangan "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" gi SQ-297-IV-son qarori, 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4038-sonli va 2017-yil 30-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha "Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3105-sonli qarorlarida hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti. O'rta Osiyo qadimgi va o'rta asrlar davri aholisining diniy, huquqiy, falsafiy qarashlarini o'zida mujassam etgan Avesta, Bundaxishn, Menogi Xerad, Denkard kabi zardushtiylik dini manbalari hamda zardushtiy jamoalarning huquqiy jihatlarini aks etgan tarixiy arxiv hujjatlariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar ayollarga munosabat va gender masalasining tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti. O‘rta Osiyo zardushtiylik jamoalari ijtimoiy hayotida ayollarning o‘rni, ularga munosabat, ayol obrazining ilohiylashtirilishi va gender masalasi.

Tadqiqotning maqsadi. Dissertatsiya ishining asosiy maqsadi yozma manbalar asosida O‘rta Osiyo zardushtiylik jamoalari ijtimoiy hayotida ayollarning o‘rni, zardushtiylik dini nuqtai nazardan ayollarga munosabatning o‘ziga xos jihatlari va gender masalasini ochib berish, O‘rta Osiyo zardushtiylik jamoalarida ayollarga munosabatning murakkab va ziddiyatli jihatlari ilmiy yoritib berish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari. Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- Gender tushunchasi va tarixiga oid ilmiy yondashuvlarni o‘rganish;
- Zardushtiylik dinida gender munosabatlariga oid tadqiqotlar tarixshunosligi bilan tanishish;
- Avestada ayol obrazining ilohiylashtirilishini tadqiq etish;
- Avestada ayollar bilan bog‘liq masalalar tahlil etish;
- Zardushtiylik jamoalarida ayollarning oila va nikoh bilan bog‘liq huquqlarini yoritish;
- Sug‘d va Baqtriyada nikoh shartnomalarida ayollarga munosabat va gender masalalarining aks etishini ilmiy tahlil etish hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Avesta matnining lingvistik tahlili orqali to‘y kunidan boshlab er *nmānō-paiti* – “uyning xo‘jayini” deb ataganidek, ayol *nmānō pathni* “uy bekasi” unvonini olishi ularning ma‘naviy va mulkiy munosabatlarda ham tengligini bildirishi aniqlandi;

Zardushtiylikda ulug‘lanib, e‘tiqod obyektiga aylangan Ardivisura Anahita, Asha, Chista, Daena kabi ma‘budalar ayollikning zardushtiylikda ilohiylashtirilganining isboti ekanligi va zardushtiylik panteonida ayollar va

erkaklar timsolidagi ilohlar teng taqsimotda ekanligi gender tenglikning ifodasi sifatida asoslandi;

Avesta matnlarida ulug‘lanib, ehtirom bilan tilga olingan 27 nafar ayollarning nomlari aniqlanishi orqali ilk zardushtiylik jamoalari hayotining barcha jabhalarida gender mutanosiblikka amal qilingani ko‘rsatib o‘tildi;

Zardushtiylikda ayollarga oid munosabatlarni ifodalovchi ma‘lumotlardagi ziddiyatlar Avesta matnlarining turli zamon va makonda yaratilishi, qayta yig‘ilishi, tuzatilishi natijasida shakllangani xronologik va lingvistik dalillar bilan isbotlandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: O‘rta Osiyoda zardushtiylik dini shakllana boshlagan davrdan to mintaqa aholisining hayotida o‘z o‘rnini islom diniga bo‘shatib bergan vaqtga qadar ayollarga munosabat masalasidagi evolyutsion bosqichlarni o‘rganish, ushbu jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy voqe‘lik va iqtisodiy hayot bilan bog‘lash hamda zardushtiylikda ayollarga bo‘lgan munosabatga ta‘sir ko‘rsatgan tashqi omillarni baholash orqali O‘rta Osiyo gender tarixiga oid ma‘lumotlarni boyitish tadqiqotning asosiy masalalari hisoblanadi.

Dissertatsiya natijasida quyidagi ilmiy farazlarni keltirib o‘tish o‘rinlidir:

O‘rta Osiyo ilk zardushtiylik jamoalarida ayollarga munosabat masalasida ayrim eskirgan odatlardan voz kechgani ehtimoli mavjud, bu an‘analar esa Rig Veda e‘tiqodchilarida saqlanib qolgan (devadasi an‘anasi);

Zardushtiylikda genderni cheklovchi asosiy mezonlardan biri ayollarning erkaklar vasiyligi ostida bo‘lishi, ayolning jismonan va ma‘nan yaqin erkak qarindoshlari himoyasida bo‘lishi bilan bog‘liq.

Demak, jamiyatning ayollarga munosabat va gender masalasi iqtisodiy taraqqiyot, madaniy aloqalar natijasida shakllanadigan ijtimoiy tafakkur mahsuli bo‘lib, bu jarayon mutassil ijobiy yoki salbiy yo‘nalishga qarab yo‘nalishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili): Ushbu dissertatsiya ishida N.Zemon Devisning “Дамы на обочине. Три женских портрета XVII века”¹, N.L.Pushkarevaning “Женщина. Гендер. Культура”², Simona Bovuarning “Второй пол”³, R.Xofning “Возникновение, развитие гендерных исследований”⁴. J.Gregoryning “The Surrogate Proletariat: Moslem Women and Revolutionary Strategies in Soviet Central Asia, 1919-1929”⁵, M.Kamp⁶, M.Toxtaxadjayeva⁷, N.Azimovalarning⁸ tadqiqotlari metodologik asos qilib olindi.

Shuningdek, S.Shodmonova, M.M.Is'hoqov, A.Qayumov, A.Mahkam, G.T.Mahmudova, B.Abdolnizozov, R.T.Urazova hamda M.J.Ishmuratov kabi tadqiqotchilarning asarlaridan zardushtiylik jamiyatida ayollarga munosabatga oid ma'lumotlarni tahlil etishdan foydalanildi⁹.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: qiyosiy-tizimli tahlil, diaxron tahlil, lingvistik tahlil, muammoli yondashuv, fanlararo yondashuv.

¹ Земон Девис Н. Дамы на обочине. Три женских портрета XVII века. – М.: Новое литературное обозрение, 1999. — 400 с.

² Женщина. Гендер. Культура. Под ред. Пушкаревой Н.Л. - М.: МЦГИ, 1999. – С. 26-27.

³ Симона де Боваур. Второй пол. - М.: Прогресс, 1997; Миллет К. Теория сексуальной политики // Вопросы философии. - М., 1994. - № 9. ~ С.23-58

⁴ Хоф Р. Возникновение, развитие гендерных исследований / Пол. гендер, культура. Под ред. Э.Шоре, К.Хайдера. – М.: РГГУ, 1999. - С.24-41.

⁵ Gregory J. 1974. The Surrogate Proletariat: Moslem Women and Revolutionary Strategies in Soviet Central Asia, 1919-1929. Princeton, NJ: Princeton University Press;

⁶ M. Kamp. Unveiling Uzbek Women: Liberation, Representation and Discourse, 1906-1929 Ph.D. Dissertation: University of Chicago, Illinois; 1998, Marianne Kamp. Pilgrimage and Performance: Uzbek Women and the Imagining of Uzbekistan in the 1920s // International Journal of Middle East Studies, Vol. 34, No. 2, Special Issue: Nationalism and the Colonial Legacy in the Middle East and Central Asia (May, 2002), pp. 263-278; Marianne R. Kamp, The New Woman in Central Asia: Islam, the Soviet Project, and the Unveiling of Uzbek Women. Seattle, W A; London: University of Washington Press, 2006. 320 pp.;

⁷ Тохтаходжаева М. Между лозунгами коммунизма и законами ислама. Vienna, 2000. - С.220-222.

⁸ Azimova N. Women's Survival Strategies: Their Role in Keeping Traditions Alive. Gender and Identity Construction. - Brill, Leiden, 2011- P. 299-304;

⁹ Исҳоқов М.М, Сулаймонов Р. Заратуштрининг ватани ва унинг яшаган даврига оид мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1999. № 1. – Б. 45-54.; Исҳоқов М.М. “Авесто”да эзгулик ва ёвузлик (мифологик қатламлар таҳлили асосида) // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2001. № 3. – Б. 22-30.; Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001; Авеста: Видевдат китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: ТошДШИ, 2007; Исҳоқов М.М. Авеста: Зардушт “Тоҳ”лари (маъно ўғирмалари ва герменевтик талқинлари). – Тошкент: ТошДШИ, 2022; Қаюмов А., Исҳоқов М., ва б. Қадимги ёзма ёдгорликлар: “Авесто”, “Занд” китоблари; Суғд фалсафий-ахлоқий ёзма ёдгорликлари; Туркий матнавислик тарихи. – Тошкент: Ёзувчи, 2000; “Авесто” Адабий-бадиий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. Тошкент: Шарқ, 2001; Маҳмудова Г. Авестонинг фалсафий моҳияти. – Тошкент: “Noshir”. 2015; Жалолов Б. Заратуштра гаталари. Авесто тилидан ўзбек тилига илмий-изоҳли таржима. – Тошкент, 2014; Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авеста ва қадимги чорвачилик. Тошкент, 2008; Уразова Р.Т. Зардуштийликда маъбудаларнинг функциялари ва ижтимоий-тарихий моҳияти // тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Dissertatsiyada ilk bor o'rganilgan O'rta Osiyo zardushtiylik jamoalarida ayollarga munosabat, ayol timsolidagi ma'budalar, ayolning oiladagi ijtimoiy mavqe'i, ayollarning jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o'rni hamda gender masalasi zardushtiylik manbalari asosida tadqiq etilishi mavzuning nazariy ahamiyatini belgilaydi. Bu bilan belgilangan davr oralig'idagi O'rta Osiyo jamiyatining ijtimoiy-ma'naviy muhitini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati sifatida tadqiq etilgan mavzu natijalari va xulosalaridan umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb hunar kollejlarning o'quvchilari, Oliy o'quv yurti talabalari uchun O'zbekiston tarixi, dinshunoslik, falsafa, etnologiya fanlaridan o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, barcha oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish kurslarida seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot tuzilasining tavsifi:

Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalar qismlaridan iborat bo'lib, 76 betni tashkil etgan.

I- BOB. GENDER TARIXINING AKADEMIK TARIX FANINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA SHAKLLANISHI

I.1. Gender tushunchasi va tarixiga oid ilmiy yondashuvlar

So‘nggi yigirma yil ichida jahon tarix fanida yangi tadqiqot yo‘nalishi paydo bo‘ldi, u hali ham turlicha nomlar bilan atalishda davom etmoqda - tarix fanida gender yondashuvi yoki maxsus tarixiy fan - gender tarixi. Shu bilan birga, gender tarixini akademik tarix fanining bir qismi sifatida belgilashni taklif qiluvchi Yevropa va Amerika gender tarixchilarining nuqtai nazari mavjud, ularsiz tarixiy jarayonni ko‘p qirrali, batafsil tushunish qiyin. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, gender tarixi tarix fani uchun bir qator eng muhim bahsli muammolarni ko‘targan bo‘lib, ular bugungi kungacha bizning olimlarimizni tarixiy jarayonlarda jinslararo munosabatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ta’sirlarini tadqiq etishga yangicha nigoh bilan qarashga undamoqda.

Ushbu paragrafning maqsadi gender nazariyasi, tarixi va amaliyotini o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o‘rganishdir. Uni amalga oshirish uchun gender va jins tushunchalarini farqlash, gender nazariyasi vakillarining ishlarini tahlil qilish, ularning feministik harakatlarning shakllanishi va rivojlanishiga qo‘shgan hissasini aniqlash kerak.

Gender tarixi — tarix fanining jinslararo farqlar asosida ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va amal qilish tarixini o‘rganuvchi yo‘nalishi; ijtimoiy ierarxik tartib kategoriyalari sifatida “erkak” va “ayol” haqidagi g‘oyalar tarixi; Gender munosabatlari tarixi, birinchi navbatda, gender mafkuralarida ifodalangan va gender vakilliklarida taqdim etilgan hokimiyat va ijtimoiy nazorat munosabatlari tarixi, shuningdek, gender tarbiyasi va ta’limi orqali “erkak” va “ayol” ni qurish va ularni shaxs identifikatsiyasi sifatida mustahkamlash usullaridir. Gender tarixi fanlararo, tarixiy usullar bilan bir qatorda gender tadqiqotlarining turli fanlari yondashuvlaridan foydalanish bilan tavsiflanadi: gender tilshunosligi, sotsiologiyasi, psixologiyasi va boshqalar.

Ayrim tadqiqotchilar gender nazariyasi tarixining ibtidosini antik davrga (miloddan avvalgi IV-V asrlarga) olib borib taqashadi¹⁰. Bu masalani Platon, Aristotel va Sokrat falsafiy tamoyillarining asosini tashkil etgan patriarxal falsafiy an'ananing shakllanishi bilan bog'lashadi.

Masalaning tarixshunosligi, gender yondashuvining nisbatan yaqin tarixga taaluqliligiga qaramay, juda kengdir. Gender tarixi masalasi xorijiy adabiyotlarda keng o'rganilgan, chunki birinchi gender tarixchilari ayollar tarixi bo'yicha mutaxassislar (gender tarixining yetakchilari bo'lgan) - ularning aksariyati Yevropa ayollar harakatining yangi to'liqini vakillari edi. Eng muhim xorijiy tadqiqotchilar orasida Joan Skottni alohida ta'kidlash kerak, uning tadqiqoti gender tarixi bo'yicha dasturiy yo'llanmaga aylangan. Keyinchalik G.Bok, L.D.Nikolson, U.Frevert, G.F.Budde, S.Lyudesdorff, R.Xoflar tarix fanida gendershunoslikning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini o'rganishgan. Aksariyat xorijiy mualliflar feministik nazariyotchilar tomonidan ishlab chiqilgan ayollar tarixi va gender tarixi o'rtasidagi chambarchas munosabatlar haqidagi qarashlari bilan ajralib turadi. XX asrning 80-yillardagi dastlabki tadqiqotlarda asosiy urg'u gender tarixi yoki jinslar tarixi ayollarning yangilangan va kengaytirilgan tarixi ekanligi haqidagi g'oyani tez-tez ta'kidlagan. Keyingi tadqiqotlarda ushbu yo'nalishlar aniq ajratib turadi, bu, ehtimol, gender tarixining ma'lum bir mustaqillikka ega bo'lishi va akademik doiralarda ma'lum e'tirof etilishi bilan bog'liqdir.

Postsovet davlatlari hududida gender masalasi bo'yicha tadqiqotchilar doirasi hali ham keng miqdorda o'rganilmagan, ammo sohaga oid tadqiqotlar yildan yilga kengayib bormoqda. Bu masala bilan 10-15 yildan beri shug'ullanib kelayotgan mutaxassislar guruhi shakllandi: N.L.Pushkaryova, L.P.Repin, O.A.Voronina¹¹. Bu yo'nalishda M.G. Muravyeva, I.R.Chikalova, I.V.Hayder,

¹⁰ Тукачева Ю.С. Развитие гендерной теории в истории образования // Историко-педагогический журнал, № 1, 2012. С. 134. (134-141)

¹¹ Пушкарева, Н.Л. Предмет и перспективы гендерного подхода в исторических науках / Н.Л. Пушкарева // Пол и гендер в науках о человеке и обществе. – Тверь, 2005; Репина, Л.П. Гендерная история: проблемы и методы исследования / Л.П. Репина // Новая и новейшая история.– 1997. – №6.; Воронина,

I.I.Yukina, A.Usmonov va boshqalar samarali faoliyat olib bormoqda¹². S.A.Ushakinning soʻzlariga koʻra, bizning asarlarimizning oʻziga xos xususiyati birinchi navbatda oʻzining ona til muhitida oʻziga xos koʻrinish tarixiga, oʻziga xos murakkab foydalanish anʼanalariga ega boʻlgan “gender” atamasini olish bilan bogʻliq boʻlishi mumkin¹³, lekin rus kontekstida bunday narsa yoʻq edi. Shu munosabat bilan bizning gender tadqiqotlarimiz muqarrar ravishda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi. Masalan, koʻplab asarlar erkaklar tarixi va jinslar oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganishga emas, balki ayollar tarixiga bagʻishlangan. Ammo buning juda oddiy tushuntirishi bor - mahalliy tarix fani ayollarning oʻzlari tomonidan olib borilgan ayollar haqidagi kam sonli tadqiqotlar tufayli shakllangan bilimlardagi boʻshliqni toʻldirishi kerak. Erkaklar tomonidan yaratilgan fan uchun boshqa oʻrganish obʼektlari ancha muhimroq boʻlib, ayollar va ularning nodavlat (ijtimoiy nuqtai nazardan ilgari unchalik ahamiyatli boʻlmagan) faoliyati uzoq vaqt davomida ilmiy qiziqish soyasida qoldi. Bundan tashqari, koʻpchilik erkak tadqiqotchilar anʼanaviy biologik essenizm nazariyasiga asoslanib, jinslar oʻrtasidagi tafovutlarni tabiiy va ijtimoiy shakllanmagan deb tan olishgan, bu esa aksariyat ayollarning shaxsiy sohadagi faoliyatini deyarli butunlay cheklab qoʻygan (yaʼni ona va xotinning vazifalari) va 20-asrda ularning ijtimoiy mavqeida sodir boʻlgan oʻzgarishlarni tushunish imkoniyatini bermagan.

Jahon ilmiy muhitida XX asrgacha deyarli barcha fanlar, jumladan, tarix ham erkaklarga xos psixologik yondoshuv bilan yoritilgan. Tarixiy

О.А. Формирование гендерного подхода в социальных науках / О.А. Воронина // Гендерный калейдоскоп. – М., 2002.

¹² Муравьева, М.Г. Гендерная история / М.Г. Муравьева [Elektron resurs] <http://www.owl.ru/gender/022.htm>; Чикалова, И.Р. Женская и гендерная история. Состояние и перспективы развития / И.Р. Чикалова [Elektron resurs] <http://www.gender-cent.ryazan.ru/school/chikalova.htm>; Хайдер, И.В. Гендерная методология истории (к постановке проблемы) / И.В. Хайдер [Elektron resurs] <http://www.astrasong.ru/c/science/article/345/>; Юкина, И.И. Проблемы становления российской истории женщин // Женщины в истории: возможность быть увиденными / И.И. Юкина. – Минск, 2001. – Вып. 1.; 15. Усманова, А. «Визуальный поворот» и гендерная история / А. Усманова // Гендерные исследования. – 2001. – №4.

¹³ Ушакин, С.А. «Gender» (напрокат): полезная категория для научной карьеры? / С.А. Ушакин // Гендерная история: pro et contra. – СПб., 2000.

yondashuvlar subyekt-obyekt munosabatlariga, asosan siyosiy, iqtisodiy va harbiy tuzilmalarni o'rganishga asoslangan edi. Makrotarixga qiziqish ustunlik qildi, bu bizga, masalan, oila mikro olamida sodir bo'lgan voqealarning ahamiyatini tushunishga imkon bermadi. Bu borada an'anaviy yondoshuvlarni o'zgartira oladigan olimlar juda kam edi. Ayollarning fandagi mavqeining o'zgarishi bilan tarixiy yondoshuvning an'anaviy sxemalarini o'zgartirish mumkin bo'lib tuyuldi. Biroq, ilm-fanga kirganidan so'ng, ayollar ko'p hollarda an'anaviy tarixiy metodologiyaning yo'naltiruvchilariga aylanishdi va feministik harakatga mansub tadqiqotchilar paydo bo'lgunga qadar vaziyat o'zgarishsiz qoldi.

Gender tarixi XX asrning 80-yillarda ayollar tarixi doirasida paydo bo'lgan. Biroq, agar ayollar tarixi feministik mafkura va harakatga asoslangan bo'lsa, gender tarixi siyosat fanga kiritgan ekstremal vaziyatlarni yengib o'tishga va gender munosabatlarining yaxlit manzarasini taqdim etishga intiladi.

Hozirgi vaqtda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan gender tarixi "gender" atamasining rivojlanishi tufayli paydo bo'lgan. Bu o'rinda biz mahalliy va xorijiy kelib chiqishi bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlarga guvoh bo'lmoqdamiz. Genderning birinchi ta'riflaridan biri AQShda berilgan bo'lib, bu masala 15 yildan ko'proq vaqt avval rasmiy ilmiy fan maqomini olgan. Ma'lumotnomalarda genderning quyidagi ta'rifi mavjud: "Bu atama gender farqlarining ijtimoiy jihatini ta'kidlash uchun feministlar tomonidan kiritilgan. Ayol va erkak jinslar orasidagi farq haqida gapirganda, biz ularning biologik ajralishini nazarda tutamiz"¹⁴. Odamlar gender haqida gapirganda, ular ayollar va erkaklarning ma'lum ijtimoiy tuzilgan tushunchalaridan boshlanadi va ularning ijtimoiy mavqeida dastlab belgilangan farqni qabul qiladi. Umuman olganda, gender erkak va ayol rollari, xulq-atvori, aqliy va hissiy xususiyatlari o'rtasidagi farqlarni barpo etuvchi jamiyatning murakkab ijtimoiy-madaniy jarayoni sifatida belgilanadi.

¹⁴ Hornsby, J. The Oxford Companion of Philosophy / J. Hornsby. – N.Y., 1995. P. 305.

“Gender” tushunchasi ayollarga oid tadqiqotlar (women’s studies) dan boshlangan va rivojlanmoqda, shunga ko‘ra gender tarixining ajdodi, ayollar tarixi bo‘lgan. G.F.Buddening maqolasida ta’kidlanishicha, ayollar tarixining paydo bo‘lishi birinchi navbatda 70-yillardagi yangi ayollar (feministik) harakati bilan bog‘liq va shuning uchun “ba’zi tarixchilar buni qiyin deb bilishgan, boshqalari esa siyosiy dasturlar va ilmiy tadqiqotlar o‘rtasida aniq farqni talab qilish kerak emas deb hisoblashgan”¹⁵, bu keyinchalik akademik doiralarda ma’lum darajada rad etilishiga va uning izolyatsiya qilingan pozitsiyasiga sabab bo‘ldi. U.Frevert yozganidek, “bunday yakkalanishning oqibati “gettoga bostirib kirish” edi, bu esa feministlarning tarix fanida o‘zgarishlarga erishishiga “muvaffaqiyatli” to‘sqinlik qiladigan holatni keltirib chiqardi”¹⁶.

Gender tarixining asosiy yo‘nalishi gender tushunchasi, ya’ni “gender-jins” tushunchasi bo‘lib, u “gender-jismoniy jins” tushunchasidan farqli o‘laroq, biologik determinizmni rad etadi va “erkak” va “ayol” haqidagi g‘oyalarning ijtimoiy-madaniy xususiyatini tadqiq etadi. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ushbu modellarning ko‘pligi va xilma-xilligini ko‘rsatmoqda. Erkaklik va ayollik, aniqrog‘i, ayollik va erkaklik haqidagi stereotipik g‘oyalarni o‘rganish gender tarixining eng rivojlangan sohalaridan biridir. Tadqiqotning boshqa faol rivojlanayotgan yo‘nalishlari - bu gender qarashlarini tahlil qilish, erkaklar olami qoidalariga asoslangan an’anaviy jamiyatlar tarixi, shuningdek, odatda gender tizimlari yoki gender rejimlari sifatida belgilanadigan ma’lum jamiyatlar va madaniyatlar doirasidagi gender munosabatlari konfiguratsiyasidir.

Gender tarixining metodologik asosi sifatida mashhur bo‘lgan genderning ijtimoiy tuzilishi nazariyasi asosida turli tadqiqot yondashuvlari ishlab chiqilgan. Makro tadqiqotlar jamiyat qanday qilib o‘z institutlari orqali shaxsning gender identifikatorini dasturlashini va uni muayyan gender rolini bajarishga

¹⁵ Будде, Г.Ф. Пол истории / Г.Ф. Будде // Пол, гендер, культура / под ред. Э. Шоре и К. Хайдер. – М., 1999. С. 132.

¹⁶ Frevert, U. Frauengeschichte – Mannergeschichte – Geschlechtergeschichte / U. Frevert // Blattman L. Feministische Perspektiven in der Wissenschaft. – Zurich, 1993. P. 8-31.

tayyorlashini tahlil qiladi. Mikrodarajada shaxsning gender identifikatorining shakllanishi, uning o‘zini erkak yoki ayol sifatida anglashi tegishli xulq-atvor modellari va amaliyotlari bilan o‘rganiladi. Bu jarayonda shaxsning erkinlik darajasini turlicha talqin qilish mumkin – qat’iy dasturlashdan tortib “genderni amalga oshirish”gacha, bunda gender shaxslar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro ta’sir natijasi sifatida qaraladi¹⁷.

1974 yilda M.Rosaldo va L.Lamfer tomonidan to‘plangan va tahrirlangan “Ayol, madaniyat, jamiyat” to‘plamida nashr etilgan Amerikalik feminist Sherri Ortnerning “Madaniyat tabiatga tegishli bo‘lganidek, ayollik ham erkakka bog‘liqmi?” nomli maqolasida¹⁸, shuningdek, Rhoda Anger, Andrienne Rich, Geyl Rubinning birinchi tadqiqotlarida (shuningdek, 1970-yillarning boshlarida) jinsni nafaqat tabaqalanish toifasi, balki aynan “bo‘ysunish mavqei belgisi” (A. Rich) sifatida talqin qilgan, va ayol uchun – “mavjud ijtimoiy rollar ierarxiasidagi buzilgan o‘rin” (S. de Bovuar) haqida yozgan.

Shunday qilib, “gender” tushunchasining mazmuni va mohiyati turli feminist faylasuflar va madaniyatshunoslar tomonidan turlicha tushuniladi va talqin qilinadi¹⁹.

Dastlab, jins faqat ayol tajribasi bilan bog‘liq edi. Feminist faylasuflarning dastlabki asarlarida “gender” atamasi “erkak” bilan solishtirganda “ayol” ning ijtimoiy, madaniy, psixologik jihatlari haqida gap ketganda, ya’ni “jamiyat tomonidan ayollar deb ta’riflangan kishilar uchun xarakterli va kerakli xususiyatlar, me’yorlar, stereotiplar, rollarni tashkil etuvchi hamma narsani ajratib ko‘rsatishgan.”²⁰.

Ammo aynan ayollar tarixi tufayli tadqiqotchilarning nuqtai nazariga ilgari yetarlicha ahamiyatli bo‘lmagan tarixiy manbalarning yangi turlari kirib

¹⁷ Суприянович А. Г. Гендерная история // [elektron manba]. Понятия и категории - Исторический проект портала ХРОНОС.: <http://ponjatija.ru/node/9411>, murojaat vaqti - 28.08.2023.

¹⁸ Ortner S. B. Is Female to Male as Nature is to Culture? // Lamphere L., Rosaldo M.Z. (eds.) Women, Culture and Society. Stanford, 1974. – P. 67-68.

¹⁹ Пушкарева Н. Л. Гендерные исследования: рождение, становление, методы и перспективы в системе исторических наук // Женщина. Гендер. Культура. М., 1999. – С. 16.

²⁰ Gentile D. A. Just What Are Sex and Gender, Anyway? A Call for a New Terminological Standard // Psychological Science. 1993. № 4. – P. 120-122.

keldi. Bular birinchi navbatda shaxsiy kelib chiqishi manbalari bo‘lib, ular orasida ayollar kundalıkları, yozishmalar va xotiralar bor edi. Tarixda ayollar ko‘rish va eshitish imkoniyatiga ega bo‘lganligi sababli, ularning jamiyatdagi alohida mavqeiini ochib berish va tushuntirish mumkin bo‘ldi. G‘arb tarixchilari jinsga asoslangan tengsizlikning namoyon bo‘lishini o‘rganishni boshladilar. G.Bokning fikricha, gender munosabatlari avtonom tarixiy qadriyat sifatida namoyon bo‘lgan ayollar tarixiga oid tadqiqotlar yangi istiqbollarni ochdi. Gender munosabatlari inson munosabatlarining barcha turlari kabi muhim ekanligi aniqlandi. Jinslar o‘rtasidagi munosabatlarni tarixning “muhim savollari” dan chiqarib tashlash o‘tmishni bilishning yangi, chuqurroq turiga yo‘lni to‘sis qo‘yishi haqida tushuncha paydo bo‘ldi²¹.

Yana bir shubhasiz fakt tadqiqotchilarni ayollarning tarix fanidagi izlanishlarini munosib baholashga majbur qiladi: “...ayollar tarixi turli davrlarda ularning hayoti bilan bog‘liq deyarli barcha masalalarni o‘z manfaatlari doirasiga kiritgan va bu borada tarixshunoslikda yangi yo‘nalish – gender tarixi yaratilishiga turtki bergan.”²².

Gender tarixining eng umumlashtirilgan kontseptsiyasi U.Frevertning maqolasida qayd etilgan bo‘lib, muallif uni tarixiy subdistsiplin sifatida belgilaydi, uning doirasida o‘tmishdagi jamiyatlarda gender tabaqalanishiga munosabat, shuningdek, uning qanday tasvirlangani va unga qanday ahamiyat berilgani o‘rganiladi²³.

Shunday qilib, gender tarixini o‘rganishning predmeti, bir tomondan, jamiyatni jinsga asoslangan tabaqalashtiruvchi munosabatlar tizimining shakllanishi va faoliyat ko‘rsatish tarixi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ierarxik tartib toifalari sifatida belgilangan “erkak” va “ayol” haqidagi tushunchalarning

²¹ Bock, G. Women’s History and Gender History: Aspects of an International Debate / G. Bock // Gender and History. – 1989. – Vol. 1. №1. P.24.

²² Чикалова, И.Р. Женская и гендерная история. Состояние и перспективы развития / И.Р. Чикалова [Elektron resurs] <http://www.gender-cent.ryazan.ru/school/chikalova.htm>

²³ Frevert, U. Frauengeschichte – Mannergeschichte – Geschlechtergeschichte / U. Frevert // Blattman L. Feministische Perspektiven in der Wissenschaft. – Zurich, 1993. Pp. 8. 28.

gender haqidagi tarixan rivojlangan g'oyalar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Gender tarixi aynan ayollar tarixi bo'yicha katta miqdordagi tadqiqotlar to'planganda paydo bo'ldi va shu bilan birga ikkinchisining uslubiy imkoniyatlarini yaxshilash haqida savol tug'ildi. Rivojlanayotgan gender tarixi doirasida, yangi tadqiqotlarni uslubiy to'ldirish jarayoni, ayniqsa Joan Skottning "Gender: tarixiy tahlilning foydali toifasi" maqolasi paydo bo'lganidan keyin juda muvaffaqiyatli bosqichga kirdi, bu keyinchalik gender tarixi bo'yicha eng ko'p tilga olingan asarga aylandikim, bu metodologiyasiz bu sohada deyarli hech qanday tadqiqot yo'nalishini amalga oshirish mumkin emas. Muallifning asosiy xizmati "jins" atamasini "sinf" va "irq" bilan bir qatorda eng muhim tahliliy tarixiy toifalar ro'yxatiga kiritganligi hisoblanadi.

Tarixchi Joan Skott genderni "hokimiyat munosabatlarini belgilashning tarixan birinchi shakli" sifatida ko'rishga chaqirdi, bu esa o'ziga xos "hokimiyat munosabatlari tarmog'i" ni tashkil qiladi. U birinchi bo'lib "erkalik" va "ayollik" tushunchalarining ma'nosi til yordamida tuzilganligiga e'tibor qaratgan va til orqali kuch munosabatlarini qurish jarayonlariga alohida e'tibor qaratishga chaqirgan.

J. Skott jinssiz (aseksual) umuminsoniy tarixning o'ziga xos standarti bo'lgan, asosan ayollarni e'tiborsiz qoldiradigan, bir jinsli "monologik" tarixga va keyinchalik ayollar tarixiga alohida e'tibor qaratgan genderning "dialogik" munosabatlar tarixiga o'tgan zamonaviy tarixning rivojlanishidagi qiziqarli tafsilotlarni qayd etadi. Shunday qilib, uning fikricha, shunday sharoitdagina boyitilgan va yangilangan ijtimoiy tarix paydo bo'lib, ijtimoiy tushunchani kengaytiradi va ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini ham jamoat, ham shaxsiy hayotda qamrab oladi.

J. Skott yozgan jamiyatdagi gender munosabatlarining to'rtta komponenti yordamida muvaffaqiyatli sotsiologik va tarixiy tahlilni amalga oshirish mumkin: birinchidan, bu jamiyatning stereotipik g'oyalarida shakllanadigan va shu tariqa ruhiy xususiyatlarni o'rnatadigan odamlar hayotining foni

hisoblanuvchi madaniy belgilar majmuasidir; ikkinchidan, diniy, pedagogik va siyosiy ta'limotlar shaklida rasmiylashtirilgan ramziy g'oyalarga asoslangan normalar; uchinchidan, ijtimoiy institutlar (oiladan davlatga bog'liq) va to'rtinchidan, gender sub'ektiv o'ziga xoslik²⁴. Uning kontsepsiyasi G'arbdagi gnoseologik burilish - tarix va adabiyotning "qo'shilish" davriga, postkonstruktivizm va postmodernizmga xos bo'lgan konstruktiv g'oyalarni "faktlarning shaffofligi" va talqinlarning ko'pligi g'oyalari bilan almashtirishga to'g'ri kelgani bejiz emas. Demak, gender maqomini shakllanish jarayonining barcha to'rt jihati o'rtasidagi munosabatlar nimadan iborat ekanligi tarixiy tadqiqot masalalarining asosiy savolidir. Shu usul bilan tarixchilar gender tushunchasini ijtimoiy munosabatlarni qonuniylashtirish va shakllanish vositalarini izlaganlarida, ular gender va jamiyatning o'zaro tabiati haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Madaniyatshunos va faylasuf Tereza de Lauretis jinsning biologik determinantlarini qat'iy rad etib, shunday ta'kidlagan: "Gender, aksincha, turli vakilliklarning qo'shma ta'siri, turli ijtimoiy institutlar - oila, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, tibbiyot, huquq, shuningdek, unchalik aniq bo'lmagan - til, san'at, adabiyot, kino, ilmiy nazariyalarda ifodalanadi" demak, shunday qilib, uning uchun gender - bu me'yoriy gender identifikatoridan tortib uning to'liq o'zgarishigacha, shu jumladan oraliq bosqichlar (transgenderlar, raqs malikalari va boshqalar) orqali ma'lum g'oyalarni taqdim etish (ijro etish) texnologiyasi va natijasi (ta'siri) da aks etadi.

Amerikalik feminist, postmodernist faylasuf Judit Batler genderda individual o'ziga xoslikni shakllanish jarayoni va natijasini ko'rdi, bu "doimiy ravishda irqiy, sinfiy, etnik, jinsiy, diskursiv o'rnatilgan o'ziga xosliklarning mintaqaviy shakllari bilan kesishadi...". Uning nuqtai nazari bo'yicha, gender o'ziga xosligining shakllanishini "uni doimo vujudga keltiradigan va mustahkamlaydigan siyosiy va madaniy chorrahalaridan ajratib bo'lmaydi",

²⁴ Scott, J.W. Gender: A Useful Category of Historical Analysis / J.W. Scott // American Historical Review. – 1986. – Vol. 91. – №5. P. 1062.

uning nuqtai nazari bo'yicha gender sof individual xususiyat, ko'rsatkich (marker) bo'lib, boshqa shaxslardan farqi, mobil va o'zgaruvchan ko'rsatkichlaridir. Shuning uchun, J. Butler, "jinsning tarixi yo'q", deb hisoblaydi va ayollarning o'zlarining umumiy tarixi yo'q - har bir shaxsning o'ziga xos tarixi bor degan fikrni ilgari surgan.

L.P. Repina gender tarixining eng faol rivojlangan sohalaridan biri - gender rollari va farqlari haqidagi g'oyalarning "tasavvur dunyosini" o'rganish haqida yozadi²⁵. Bunday qiziqish tarixshunoslikning yangi tendentsiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning gnoseologik asoslari zamonaviy gumanitar bilimlar rivojlanishidagi umumiy antropologik va lingvistik burilish va tarix va adabiyotning yangi yaqinlashuvi fonida kengayadi.

Gender tarixchilari tomonidan qo'llaniladigan usullarning aksariyati gender psixologiyasi yoki sotsiologiyasidan olingan deb hisoblanadi. Garchi, tarixiy etnologiya fani qo'llaydigan kuzatish yoki insayder usulini (tarixiy manbalar, ilmiy nashrlar, badiiy asarlar ko'rinishidagi ma'lumotlardan maksimal darajada foydalanishga asoslangan holda, tadqiqotchi o'tmish dunyosini ichkaridan o'rganish uchun iloji boricha chuqurroq kirib boradi) orqali ham bir xil darajada muhim rol o'ynasa-da, gender psixologiyasi yoki sotsiologiyasi dolzarb ahamiyatini alohida qayd etish lozim. Ushbu vaziyatning mumkin bo'lgan sabablaridan biri bu ikki gumanitar fanlar doirasida ayollar va erkaklarning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini o'rganishning uzoq tarixidir. Sifatli metodologiyani qo'llash doirasining kengayishi (rasmiy miqdoriy metodologiyadan farqli o'laroq), tarixiy voqealarga muallifning talqiniga e'tiborning kuchayishi, klassik ob'ektivlik pozitsiyalaridan chekinish (sub'ektiv qadriyatlar va hissiyotlarni tan olish) va aniq hodisalarni bilvosita ifodalovchi "fon" ga diqqatli bo'lish.

M.G.Muravyov ta'kidlaganidek, "Gender tahlili taqdim etgan imkoniyatlarni amalga oshirishni tarixiy tadqiqot va umumlashirish usullarining

²⁵ Репина, Л.П. Гендерная история: проблемы и методы исследования / Л.П. Репина // Новая и новейшая история. – 1997. – №6. С. 52.

o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, moslashtirmasdan, yangi metodlarni tarixiy manbalarning ziddiyatli ma'lumotlariga "nozik" yondoshmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi."²⁶

Bugungi kunda tarixda gender tadqiqotlari asosan tarixchilar uchun an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, antropologik yondashuvni va jinslararo ijtimoiy ta'sirning asosiy jihatlarini uyg'unlashtirish yo'nalishida olib borilmoqda. Bunda ilmiy bilimlarning o'zaro bog'liq (va nisbatan yangi) sohalari - og'zaki tarix, psixotarix, kundalik hayot tarixi, mentalitet tarixi kabilarning yutuqlaridan foydalaniladi, bu juda jiddiy kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Nodir kashfiyot va muhim natijalarga erishish uchun eng samarali yo'l mutaxassislarining butun jamoasining muvofiqlashtirilgan ishi bilan bog'liq. Bunday holda, u yoki bu tadqiqotchining chuqur ilmiy salohiyati ham mavjud usullarning maksimal sonidan foydalangan holda barcha muammolarni hal qilishga yordam bera olmaydi. Gender metodologiyasi avvalo turli sohalar va maktablar olimlarining hamkorligini talab qiladi.

Gender tarixiy metodologiyasining o'ziga xos xususiyatlariga kelsak, biz N.L.Pushkarevaning tarixdagi gender yondashuvining sintez qilish funksiyasi haqidagi nuqtai nazarini qayd etishimiz lozim. U shunday deb yozadi: "Gender metodologiyasi ayollar va erkaklarning funksional jihatdan bir-birini boyitmagan bir-biriga bog'lanmagan, kompensatsiya qilinmagan (bo'shliqlarni to'ldirmagan), qayta ko'rib chiqilmagan (feminologiyaning funksiyalari bo'lgan eski g'oyalar, eski yondashuvlarni) alohida mustaqil "tarixlar" sifatida qaramasdan, balkim ularning barchasini sintez qiladi"²⁷. Bu, birinchi navbatda, tarix fanida gender metodologiyasining shakllanishida katta rol o'ynagan tarixiy feminologiyaning fanlararo salohiyati bilan tarix fanidagi yangi uslubiy yo'nalishlarning sintezini nazarda tutadi.

²⁶ Муравьева, М.Г. Гендерная история / М.Г. Муравьева [Elektron resurs] <http://www.owl.ru/gender/022.htm>

²⁷ Пушкарева Н.Л. Предмет и перспективы гендерного подхода в исторических науках / Н.Л. Пушкарева // Пол и гендер в науках о человеке и обществе. – Тверь, 2005. С. 40.

Ammo ta'kidlash joizki, tarixda gender yondashuvini shakllantirish jarayonini yakunlangan deb hisoblash qiyin. Tarixiy gender ekspertizasini o'tkazishga imkon beruvchi ma'lum usullar majmuasi mavjudligiga qaramay, u hali ham tegishli gumanitar fanlarning keng qamrovli fanlararo usullari va an'anaviy tarixiy tadqiqot usullari bilan to'ldiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy tarix fanida gender fanlararo yondashuvini shakllantirish 20 yildan ortiq davom etmoqda. Uning hozirgi kungacha davom etayotgan rivojlanishi zamonaviy tarix fani doirasida ayollar tarixidan ajralish va mustaqil o'zini o'zi belgilash bilan bog'liq bir qator o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu jarayon mustaqil tadqiqot ob'ektini tashkil etishga olib keldi, ko'p hollarda jamiyatdagi ierarxik asosga ega bo'lgan, tarix davomida o'zgartirilgan ayol va erkak rollari haqidagi g'oyalar sifatida belgilanadi. Mustaqil tadqiqot sohasini aniqlash va metodologik tizimni shakllantirish ba'zi tadqiqotchilarga yangi maxsus tarixiy nizom - gender tarixining paydo bo'lishi haqida gapirishga imkon berdi. Shu bilan birga, akademik doiralarda tarix fanida "gender yondashuvi" tushunchasidan foydalanish ko'proq uchraydi, bu ham o'zining kuchli dalillariga ega, bu biz genderning bir nechta sohalarini (tarixiy feminologiya, andrologiya va jinsiy madaniyat tarixi) "norasmiy" birlashtirish haqidagi fikrlarimizda ifodalangan.

I.2. Gender va din munosabatlariga oid tadqiqotlar (zardushtiylik dini misolida)

Insoniyat tarixida din eng ta'sirchan va faol ta'sir ko'rsatuvchi omil, shaxsning ong va dunyoqarashini shakllantiruvchi manba, sivilisatsiyaning xususiyatlarini belgilovchi voqe'likdir. Shu nuqtai nazarda din siyosiy institutlarning muhim quroli, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni tartibga soluvchi majmua sifatida ahamiyatli bo'lib kelgan. Dinning ijtimoiy munosabatlardagi ta'siri gender xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq. Zero, din ijtimoiy

munosabatlarni axloq, savob, gunoh kabi tushunchalar bilan baholar ekan, erkak va ayollar uchun alohida o'ziga xos mezonlar belgilaydi. Shu nuqtai nazardan barcha sohalar ichida gender masalasi avvalo diniy qarashlarning tadqiqot obyekti bo'lgan deb hisoblash to'g'ri bo'ladi.

Dissertatsiya mavzusidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, garchi, diniy institutlarning boshqaruvi asosan erkak jinsi vakillari qo'lida bo'lsa-da, diniy tashkilotlarning ijtimoiy, psixologik va hatto iqtisodiy hokimiyatida ayollarning o'rni nihoyatda katta bo'lgan. Bu jarayon tarixiy davr va madaniy mintaqalardan qat'iy nazar an'anaviy xususiyatga egadir. Jumladan ayollarning erkaklarga qaraganda ko'proq diniy ruhiyatga moyilligi 2008 yildan 2015 yilgacha 192 mamlakatda statistik so'rov natijalaridan foydalangan Pew tadqiqot markazi (Pew Research Center) tomonidan olib borilgan keng ko'lamli tadqiqot xulosalarida tasdiqlangan²⁸. Unga ko'ra dunyodagi ayollarning 83,4 foizi va erkaklarning 79,9 foizi diniy mansubligini qayd etgan. Bu shuni anglatadiki, dindor ayollar erkaklarga qaraganda 97 millionga ko'p. 192 mamlakatdan 61 tasida birinchisi kamida 2 foizga oshgan. O'zini ma'lum bir diniy guruhga mansub erkaklar soni ayollardan 2 foizdan ortiqroq bo'lgan mamlakatlar aniqlanmagan.

Har kuni ibodat qilasizmi, degan savolga 84 mamlakatdan 43 tasida ko'proq ayollar ijobiy javob berishgan. Umuman olganda, bu savol eng katta gender farqini ko'rsatdi: shunga o'xshash statistik ma'lumotlar mavjud bo'lgan 84 mamlakatda har kuni erkaklarga qaraganda 8% ko'proq ayollar ibodat amallarini bajaradilar. Garchi bu statistik tadqiqot zamonaviy dunyoga taaluqli bo'lsa-da, barcha tarixiy davrlarda ham bu holat bundan o'zgacha bo'lganini ifodalovchi faktlar mavjud emas. Aksincha, mantiqan o'ylab ko'rilsa asosiy faoliyati uy-ro'zg'orning maishiy xizmatlaridan iborat bo'lgan ayollarning diniy amallarni bajarishga imkoni va rag'bati ustunroq bo'lgan bo'lishi kerak. Ushbu holat esa, o'tmishda ham barcha diniy tashkilotlar ayollarga alohida e'tibor

²⁸ <https://cso-central.asia/gender-i-religiya-na-karte-mira/>

berishini talab etgan. Biroq, xo'jalikning an'anaviy shakllari ayollarning odatdagi ierarxik erkak dunyosidan tashqarida faol ijtimoiy individga aylanishiga biroz mone'lik qilgan. Qayd etilgan holatlar dinda ayollarga munosabat masalasining alohida mavzu sifatida o'rganilishining dolzarbligini belgilaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmida V.E.Gladston sivilizatsiyaviy rivojlanish, ma'naviy yuksalish tarixiga to'xtalar ekan har qanday davrda xalqning sivilizatsiyasi va madaniyatiga baho berish uchun eng maqbul mezon bu ayollarga bo'lgan munosabatning qonuniyatlar majmuasi ekanligini, sivilizatsiyasining muhim mezoni bu xalqning o'z ayollariga ko'rsatgan ijtimoiy va axloqiy mavqeida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Hatto, V.E.Gladston insoniyat tafakkurida boshqaruvda jismoniy kuchdan, hokimiyatdan madaniy boshqaruvga o'tilishi ayollarning ijtimoiy huquqlarida namoyon bo'lishiga ishora qiladi va bu jarayonni diniy ongning yuksalishi bilan bog'liq deb hisoblaydi²⁹. Shunga ko'ra aytish mumkinki, O'rta Osiyo qadimgi aholisining madaniy taraqqiyoti va diniy tafakkurining rivojlanishi tarixini o'rganish gender tarixi bilan yanada mufassallashadi.

Shuningdek, aksariyat tadqiqotchilar ayollarga bo'lgan madaniy yondashuv, ayol qadrining ulug'lanishi an'analarning ibtidosini ma'lum bir din bilan bog'lash hollari ham uchraydi. V.E.X.Lekking "Yevropada ratsionalizm ruhining yuksalishi va ta'siri tarixi" asari aynan qayd etilgan mazmunni ifodalaydi. Tadqiqotchiga ko'ra, ayolning nasroniylik ta'limotidagi talqinidan oliyroq g'oyani toppish mushkil yoki umuman bunday g'oya bo'lmagan, aynan shu dinda ilk marta ayol o'zining munosib mavqeiga ko'tarilgan ... johil va zulmat zamonlarida Bibliyadagi ayolning ideal tipi o'tmishdagi eng mag'rur sivilizatsiyalarga noma'lum bo'lgan muloyimlik va poklik tushunchasini aks

²⁹ Gladstone W.E. Address on the Place of Ancient Greece in the Providential Order of the World: Delivered Before the University of Edinburgh, on the Third of November, 1865 (Classic Reprint). Four edition. Edinburgh: Oliver and Boyd. 1865. P. 39-40.

ettirgan³⁰. Darhaqiqat, Bibliyadagi g‘oyalar o‘z davrida insoniyatning axloqiy tafakkurini yana bir bosqichga yuksalishiga turtki bo‘lgan, ammo V.E.H.Lekkining nuqtai nazarida ilmiylik ehtiroslar ko‘lankasida panada qolgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yana bir yevropalik tadqiqotchi Uilliam Samuel Lilli “Xristianlikning boshqa dunyo e‘tiqodlariga nisbatan beqiyos ustunligi uning ideali va nikoh qonunidan ko‘ra aniqroq namoyon bo‘lmaydi” degan bir yoqlama xulosani taqdim etgan³¹. Balkim tadqiqotchilarning fikrlari ularning zardushtiylik va uning muqaddas manbalaridan bexabarligi bilan bog‘liqdir. Chunki, tarixan zardushtiylik va uning muqaddas manbai Avesta nasroniylik va Bibliyadan ming yillar avval ayollarning mavqe‘iga oid muhim bitiklarni ma‘lum qilgan edi.

Yevropalik tadqiqotchilar ayrimlari yuqorida keltirilgan olimlardan farqli o‘laroq zardushtiylikning oltin davridagi zardushtiylik oilasining tashkil etilishi va ta‘limoti to‘g‘risida tasavvur hosil qilish imkonini beradigan bir qancha materiallarni nashr etishgan. Ulardan yevropalik tadqiqotchilar qatoriga Spiegel, Geiger, Darmesteter, Harlez, Casartelli va Zimmerni qayd etishi mumkin; parsiy – zardushtiy mualliflarga esa taniqli tarixchi janob Dosabhai Framji Karaka va janob Sohrabji Shahpurji Bengalilarni tilga olish mumkin.

XX asr jiddiy kontseptual va nazariy o‘zgarishlar davri bo‘ldi: masalan, feministik va gender tadqiqotlari nafaqat diniy fanlarda yangi mavzular va yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga, balki umuman ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlardagi uslubiy o‘zgarishlarga ham hissa qo‘shdi. Dinshunoslikda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga muvofiq “ma‘naviyat”ga oid g‘oyalar paydo bo‘lib, ular inson dunyosi haqidagi an‘anaviy va shuning uchun ham hukmron bo‘lgan g‘oyalarga qo‘shilishga harakat qiladi va ijtimoiy-gumanitar fanlarning turli sohalari tadqiqotchilarining diqqat-e‘tibori obyektiga aylangan. Ko‘pgina tadqiqotchilar turli ohanglarda va turli nazariy asoslardan foydalangan holda

³⁰ Lecky W.E.H. History of the rise and influence of the spirit of rationalism in Europe. London, Longman, Green, Longman, Roberts, & Green. 1865. P. 234 (447 p.)

³¹ Lilly W.S. On Right and Wrong. Chapman and Hall, 1891. P. 204. (284-p.)

dinning jins masalasidagi yondoshuvining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillari haqida tadqiqoylar olib borishmoqda. Din insonning shaxsiy ishi, muayyan shaxs va g'ayriodiy sub'ekt o'rtasidagi munosabatlarning individual tarixiga aylanadi.

Dinshunoslikdagi gendershunoslik va feminizmning o'rni va ahamiyati haqidagi savol ayollarning barcha jamiyatlarda ham ma'naviy harakatlarning ommalashib borishidagi o'rnining tadqiq etishidagi zaruratidan kelib chiqadi. Bu tadqiqotchilar tomonidan turli yo'llar bilan izohlanadi, ammo har holda, bu barcha tushuntirish va tavsiflovchi urinishlar gender tadqiqotlari doirasida aytilgan nazariy tamoyillarga asoslanadi.

Barcha dinlarda bo'lgani kabi zardushtiylikda ham jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi diniy qonun-qoidalar majmuasi shakllangan. Hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi ijtimoiy munosabatlarda jins va jinslararo munosabatga alohida e'tibor qaratilgan. Zero, jamiyatning asosiy o'zagi bo'lgan oila instituti ikki jinsning serqirra munosabatlariga asoslanganiga ko'ra, ijtimoiy funksional vazifalarning diniy-axloq normalariga aylanishi tabiiydir.

Zardushtiylikning muqaddas manbalari, ularning sharh (zand)lariga oid diniy adabiyotlarda jins va gender bilan bog'liq masalalar, xususan ayollarga xos hukmlar, majburiyat va huquqlar batafsil yoritilgan. Biroq, ushbu adabiyotlarning birortasining obyekt jins bilan bog'liq bo'lmay, balki, diniy normalarning amaliyoti yoki falsafasini nazarda tutadi. Zardushtiylikda jins bilan bog'liq qarashlar va gender tarixi nasroniy missionerlari va nazariyotchilarining Hindistondagi zardushtiylik (pars) jamoalari ulamolari bilan bilvosita bahslaridan boshlangan. Jumladan, birinchilardan ushbu masalaga e'tibor qaratgan tadqiqotchilardan biri XIX asrda Hindistondagi parsiy ayollari ta'limining koshshifi janob Sohrabji Bengaliy qadimgi zardushtiy ayollarning

ahvoli haqida 1851-yilda birinchilardan bo‘lib har chorakda bir marta chiqadigan mahalliy Jagot Premi jurnalida maxsus maqola nashr etgan³².

Yana bir parslar peshvosi Darab Dastur Peshotan Sanjana bo‘lib, 1892-yil 18-aprelda Bombeydagi “pars qizlar maktabi”da o‘qigan ma‘ruzasida birinchilardan bo‘lib zardushtiyalar jamiyatida ayollarning o‘rni va gender masalsiga to‘xtalib o‘tdi³³. Zardushtiyalar dasturi – diniy peshvosi, ulamosi “Qadimgi zardushtiylik jamoalarida ayollarning o‘rni” nomli ma‘ruzasida mavzuning tanlanishiga sabab bo‘lgan ikki omilni qayd etib o‘tgan. Birinchidan, so‘nggi paytlarda Bombeydagi pars qizlarning umumiy ta‘lim tizimiga katta e‘tibor qaratilayotgani. Bu esa ayollarning aqliy rivojlanishining foydali omili sifatida qaralayotgan qarashlar qadimgi zardushtiylik kitoblarida juda yaxshi ta‘kidlangan axloqiy va ma‘naviy madaniyat tizimidan hozirgi kunlarda ham uzoqlashganini eslatadi. Ikkinchidan, ingliz yozuvchilarining sivilizatsiya va axloq tarixiga oid keng tarqalgan fikri, Sharqning madaniyatli xalqlari nasroniylik vujudga kelishidan avval, ayol haqidagi eng oliy va olijanob g‘oyalar Yangi Ahdda ifodalangunga qadar bunday g‘oyalar bilan mutlaqo tanish emas edi degan fikrlaridir³⁴. Darab Dastur Peshotan Sanjana zardushtiylikda ayollarga munosabat haqidagi dastlabki mulohazalarni to‘rtta nuqtada ifodalagan: 1. zardushtiy qizining tug‘ilishi, tarbiyasi va balog‘at yoshiga qadar bo‘lgan vazifalari; 2. nikoh to‘g‘risidagi Avesta g‘oyalari; 3. zardushtiy xotinning ijtimoiy va ma‘naviy mavqei haqida tushuncha; va 4. Avesta davrida ko‘pxotinlilik yoki monogamiya qo‘llanilganmi degan savollar orqali mavzuning mohiyatini yoritgan³⁵.

³² Famous Parsis, Biographical & Critical Sketches of Patriots, Philanthropists, Politicians, Reformers, Scholars and Captains of Industry. Sorabji Shapurji Bangalli. First edition a. Natesan & co., Madras, Price Rs. Three. P. 81-102.

³³ Dārāb Peshotan Sanjānā. The Position Of Zoroastrian Women In Remote Antiquity: As Illustrated In The Avesta, The Sacred Books Of The Parsees. Education Society's Steam Press, 1892. 85 p.

³⁴ Dārāb Peshotan Sanjānā. The Position Of Zoroastrian Women In Remote Antiquity: As Illustrated In The Avesta, The Sacred Books Of The Parsees. Education Society's Steam Press, 1892. P. 4.

³⁵ Dārāb Peshotan Sanjānā. The Position Of Zoroastrian Women In Remote Antiquity: As Illustrated In The Avesta, The Sacred Books Of The Parsees. Education Society's Steam Press, 1892. P. 9.

Zardushtiylik dinida ayol mavzusida alohida risola 1992-yilda eronlik olimi doktor Ketoyan Mazdopur tomonidan nashr etilgan. Ushbu risolada zardushtiylik asosiy manbai bo'lgan Avestaning eng qadimgi qismlari – Gohlarda ayollarga oid ma'lumotlar, ayollarga erkaklarga qanday murojaat qilingan bo'lsa, shunday teng mavqe'da murojaat qilingani, Avestaning keyingi qismlari va pahlaviy tilida yaratilgan zardushtiylikka oid diniy adabiyotlarda ayollarning ezgu "Norig" va yovuz "Jeh" ga bo'lib talqin etilgani, ayolning zardushtiylik jamoasidagi ona va sadoqatli umr yo'ldoshi kabi mavqe'i, ijtimoiy hamda xo'jalik mashg'ulotlari va vazifalari batafsil yoritilgan. Ushbu muhtasar tadqiqotda zardushtiylik dinida ayolga munosabat masalasi pahlaviy va forsiy tilidagi manbalar asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida uzoq tarixiy davrda yaratilgan turli yo'nalishlardagi matnlardan ayollarga oid jihatlarni yig'ib, umumiy va yogana matn shakllantirishga harakat qilingan. Garchi, tadqiqotdagi e'tiqodga oid matnlar Avesta va unga ishoralarga qaratilgan bo'lsa-da, asosiy adabiyotlar o'rta va yangi fors tildagi tadqiqotlar asosida tuzilgan. Shuningdek, boshqa tarixiy tadqiqotlar va nashrlardan ko'chirish yoki ularni takrorlashdan saqlanilgan. Albatta, uzoq tarixiy davrda yaratilgan va har xil yo'nalishdagi adabiyotlardan foydalanishga harakat qilinganiga qaramay, ayrim jihatlardan etibordan chetda qolgan³⁶.

Erkak va ayol o'rtasidagi diniy tenglik, odatda, zardushtiylikning ajoyib xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu xususiyat tabiiy xususiyatlari bilan birgalikda bu qadimiy dinga zamonaviy qiyofa baxsh etadi. Biroq matnlarda, ayniqsa, o'rta fors manbalarida misoginistik (ayollarni kamsituvchi, ayollarga nisbatan nafratlantiruvchi) tuyg'ularga ishora qiluvchi bir qancha parchalar mavjud. R.K.Zener ularni zurvaniylik an'anasi bilan bog'lagan, Geo Videngren bu an'anani "Avesto"dan izlashga harakat qilgan³⁷. Aksincha, Meri Boys³⁸ va

³⁶ كتایون مزداپور. زن در آئین زرتشتی. انتشارات نوید (آلمان). چاپ اول / دیماه 1371 / دسامبر 1992. 84 ص.

³⁷ Geo Widengren, "Primordial Man and Prostitute: A Zervanite Myth in the Sassanid Avesta". In: Studies in Mysticism and Religion Presented to Gershom G. Scholem (Jerusalem, 1967), pp. 227–234.

³⁸ Mary Boyce, A History of Zoroastrianism. (Leiden, 1975) Vol.I, p. 308 n. 83.

Albert de Yong³⁹ ayollar odatda zardushtiylik dinida katta hurmatga, obro‘li mavqega ega, ularning bir xil an‘ana doirasidagi salbiy tasviri faqat yakka va tasodifiy hodisa bo‘lib, har holda zardushtiylik ta‘limotiga to‘g‘ri kelmaydi, deb ta‘kidladilar.

Bu fikrga Jamshed Choksi qarshi chiqadi. Uning ta‘kidlashicha, ayollarning salbiy qiyofasi shunchaki nomuvofiqlik yoki tasodif emas, balki zardushtiylikdagi hukmron munosabat edi. Uch yarim ming yildan ko‘proq vaqt davomida “ayollarning iblisona tavsifi ularga nisbatan qo‘llanilgan ayollikning ilohiy xususiyatlaridan ustunroq” tushunchasi “ko‘plab Mazdaparastlar, ayniqsa ayollarning kundalik hayotini shakllantirdi” deb hisoblagan⁴⁰. Patriarxat⁴¹ va dualizm oqibatida zardushtiylikning diniy manbalari tartib, taqvo, poklik, komillik kabi tug‘ularni erkaklar bilan, tartibsizlik, yovuzlik, shahvoniylik, nomukammallik, ifloslanishdan tushunchalarining namoyon bo‘lishini - ayollarning salbiy obrazlarida aks ettiradi, bu xususiyat erkak va ayol timsolidagi ilohiy mavjudotlar va afsonaviy qahramonlar qiyofasida ham aks etgan bo‘lib, bu holat “jinsga asoslangan farqlanishni ko‘rsatish uchun” qilingan deb qaralgan⁴². Zardushtiylik dini “ayol jinsining go‘yoki ma‘naviy, axloqiy va fiziologik jihatdan pastligi, shuningdek, nomutanosib harakatlarga moyillik haqidagi” g‘oyalarni ilgari surgan⁴³. Taqvodor erkaklarning ayollar va ayniqsa ayol timsolidagi yovuz mavjudotlar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflardan ehtiyot bo‘lishlari ko‘p marta ta‘kidlangan⁴⁴. Dastlabki bosqichda zardushtiylik ta‘limoti insonning insonga, Ahura Mazdaning Angra Mainyuga

³⁹ Albert de Jong, “Jeh the primal whore? Observations on Zoroastrian misogyny”. In: Rai Kloppenborg and Wouter J. Hanegraaff (eds.), *Female Stereotypes in Religious Traditions*. (Leiden, New York, 1995) pp. 15–41.

⁴⁰ Jamshed K. Choksy. *Evil, Good, and Gender. Facets of the Feminine in Zoroastrian Religious History*. Pp. xii, 166. New York, Peter Lang, 2002. P. 120.

⁴¹ Jamshed K. Choksy. *Evil, Good, and Gender. Facets of the Feminine in Zoroastrian Religious History*. ... Pp. 115-117.

⁴² O‘sha asar. 4- bet.

⁴³ O‘sha asar. 114- bet.

⁴⁴ O‘sha asar. 119- bet.

qarama-qarshiligiga urg‘u bergan bo‘lsa, keyinchalik “bu qarama-qarshilik erkak va ayollik mohiyati sifatida namoyon bo‘la boshlagan”⁴⁵.

Jamshed Choksining Olti bobga bo‘lingan ushbu kitobida “yovuzlik, ezgulik va jinsiy munosabatlarga oid ta’limot, diniy, marosim va ijtimoiy-diniy o‘zgarishlar” ko‘rib chiqqan. Tadqiqotchi birlamchi manbalarga mustahkam asoslangan holda, ayni paytda keng ko‘lamli fanlarning bir-birini to‘ldiruvchi nazariy paradigmalariga tayangan. U tarixshunoslik, adabiy, diniy va dunyoviy o‘lchovlarga ega bo‘lgan matnlar va san’at asarlaridan foydalangan.

Jamshed Choksining qayd etilgan monografiyasi ham bir qancha kamchiliklardan xoli emasligi Almut Hinz tomonidan berilgan taqrizda keltirib o‘tilgan. Almut Hinz monografiyada ko‘plab yangi natijalarga erishilganini qayd etgan holda muallifning ayrim o‘rinlarda masalaga bir yoqlama qaraganini tanqid qilgan. Unga ko‘ra monografiyada misol qilib keltirilgan ayrim mifologik obrazlarning qaysi jinsga taaluqli ekanligi mavhum bo‘lgan holda muallif ularni ayollarga nisbat bergan bo‘lsa, boshqa o‘rinlarda aynan erkaklar timsolida ifodalangan yovuz obrazlar e’tiborsiz qoldirilgan yoki atayin muhokama etilmagan⁴⁶.

Turan Shahriari Bahrami “Qadimgi Forsda ayollarning ijtimoiy holati” nomli maqolasida Eron hududida eng qadimgi davrlarda, matriarxat urug‘chilik munosabatlaridan patriarxal boshqaruvga o‘tish jarayonlarida ayollarga munosabat, ularning ijtimoiy o‘rni va siyosiy mavqe’i masalalari tahlil qilingan. Muallifga ko‘ra ayollar hatto siyosiy hokimiyatda ham vorislik huquqiga ega bo‘lishgan. Bunga misol qilib muallif Kir II ning ona tarafdan qarindoshlik rishtalari orqali Midiya taxtini egallaganini keltirib o‘tgan. Maqolada Midiya podshohligi va ahamoniylar saltanatida ayollar va erkaklar teng huquqli

⁴⁵ O‘sha asar. 115- bet.

⁴⁶ Almut Hintze. *Evil, Good, and Gender. Facets of the Feminine in Zoroastrian Religious History.* By Jamshed K. Choksy. pp. xii, 166. New York, Peter Lang, 2002. // November 2003. *Journal of the Royal Asiatic Society* 13(03):403 - 410

bo'lgani, bu ijtimoiy munosabatlar zardushtiylik tarqalganidan keyin ham davom etgan degan xulosa bayon etilgan⁴⁷.

Mobed (Mo'bad) doktor Ali A. Jafariy "Gohlar va Avestaning keyingi qismlarida ayollar" nomli maqolasida "Avesta"da ayollarning mavqeini to'liq anglash uchun, avvalo, Zaratushtra dini paydo bo'lgan, tarqalgan, boshqa dinlar bilan munosabatga kirishgan va hattoki jamiyat hayotidan butunlay siqib chiqarilgan hududlarning rivojlanish tarixiga nazar tashlagan. Doktor Ali A. Jafariy Zaratushtra ta'limotining targ'ib etilishi bilan ayolning jamiyatdagi mavqei aniq namoyon bo'lganini Gohlar va umuman Gohlar lahjasidagi qo'shimcha matnlarda tavsiflangan "Din tanlash" haqidagi mashhur oyatlar orqali dalillashga harakat qilgan. Maqolada Gohlarda kuylangan ta'limotda barcha diniy va ijtimoiy jabhalarda erkaklar va ayollar mutlaqo teng maqomda ko'rilgan, bu hattoki zamonaviy "rivojlangan" jamiyatlarda kuzatilayotgan va amalda bo'lganidan ham ko'proq teng huquqlikdir deb ta'kidlangan. Ammo Gohlar davridan keyingi davrda, ayniqsa mintaqaning butun tub aholisi o'zlarining azaliy, an'anaviy odatlari qobig'iga singib ketgach, vaziyat butkul o'zgargani ko'rsatilgan. Avestaning keyingi qismlarini yaratgan jamiyatning ayrim guruhlaridan ayollarning huquqlari kamaytirilgan yoki unutilgan. Xronologik jihatdan, Avesta matnlari kuchli hukmdorning shaxsiy manfaatlariga moslashtirilganidan darak bersa-da, bu omil mutloq mafkuraviy darajaga erisha olmagan. Yaratilgan tabu (ta'qiq)lar Avesta ta'limotining o'z mavqei, asosiy bosh tamoillaridan butunlay chekinib, ma'naviy ruhidan mahrum qila olmadi. Maqola muallifi "Avesta"da ayolni kamsituvchi birorta jumla yo'q ekanligi, hatto "Vendidad" ham ayol haqida hech qanday kamsituvchi so'zlarni aytmaganini qat'iy qayd etgan⁴⁸.

2018-yilda "Cogent Arts & Humanities" jurnali 5 fasli 1-qismida Mahmud Emami Naminning "Sosoniylar davridagi ayollarning huquqiy holati

⁴⁷ Bahrami T.Sh. The Social Position of Women in Old Persia. Tr. Vida Bahrami Keyani. Mehergan journal. Australia: university of Sydney. Published 12 November 2008. P. 25-30.

⁴⁸ Jafarey A.A. Woman in the Gathas & the later Avesta. https://www.caais-soas.com/CAIS/Religions/iranian/Zarathushtrian/woman_in_the_gathas.htm [elektron manba].

(eramizning 224–651)” maqolasi chop etildi. Doktor Mahmud Emami Namin o‘z maqolasida Sosoniylar tarixini o‘rganuvchi tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ikkita tezisga qarshi argumentlar bilan maydonga chiqdi. Birinchi tezis ayollarning inson sifatida obyekt hisoblangan holda yuridik shaxs emasligi va shuning uchun o‘z huquqlaridan foydalana olmasligi haqidagi qarash bilan bog‘liq. Muallif tomonidan e’tiroz bildirilgan ikkinchi tezis “Sosoniylar orasida qarindosh-urug‘lar (qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh) va qarz nikohi (xotin olish) keng tarqalganligi haqidagi fikrlar” bilan bog‘liq. Muallif ikki taniqli sharqshunos Kristian Bartolome va Artur Kristensen tomonidan taqdim etilgan sosoniy ayollarning pozitsiyasiga oid dalillarga qarshi chiqadi. Ta’kidlash kerakki, yuqorida tilga olingan tadqiqotchilar tomonidan tasvirlangan vaziyat bir necha yil avval zamonaviy tarixchilar tomonidan shubha ostiga olingan edi. 1924 yilda Germaniyaning Geydelberg universitetida professor Kristian Bartolome tomonidan taqdim etilgan tezislari (Sosoniylar imperiyasida ayollarning huquqlari) islomgacha bo‘lgan davrda ayollarning huquqiy maqomining yo‘qligi bilan bog‘liq. Doktor Mahmud Emami Namin Sosoniylar huquqi bo‘yicha mutaxassis, professor Mariya Makuch tomonidan ayollar, nikoh va olia huquqiga oid olib borilgan tadqiqotlarini⁴⁹ ham tanqidga olgan. Doktor Mahmud Emami Namin e’tibor qaratgan ikkinchi muammo - bu Kristensen va Bartoloma tomonidan muhokama qilingan “insest (yaqin qarindoshlar nikohi)ga ruxsat berish” masalasi edi. Maqolaning ushbu qismi ancha qiziqroq va qiziqarli xulosalarni taqdim etadi. Doktor Mahmud Emami Naminning fikriga ko‘ra, “qarindoshlik” Sosoniylar davrida zardushtiylar orasida keng tarqalgan odat

⁴⁹ Macuch M. Incest im vorislamischen Iran // *Archaeologische Mitteilungen Aus Iran*, 24, 1991. P. 141-154; Macuch M. The function of temporary marriage in the context of Sasanian Family Law. In A. Panaino & A. Piras eds. *Proceedings of the Fifth Conference of the Societas Iranologica Europe held in Ravenna, October 6-11, 2003. Vol. I. Ancient and Middle Iranian Studies*, Milano: Mimesis. 2006. P. 585-597; Macuch M. The Pahlavi model marriage contract in the light of Sasanian Family Law. In M. Macuch, M. Maggi, & W. Sundermann (Eds.), *Iranian languages and texts from Iran and Turan. Ronald E. Emmerick memorial Volume*. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag. 2007. P. 183-204; Macuch M. Judicial and legal systems. III. Sasanian legal system. *Encyclopedia Iranica*, 15(2), 2009. P. 181-196; Macuch M. Incestuous Marriage in the Context of Sasanian Family Law. In M. Macuch, D. Weber, & D. Durkin-Meisterernst eds. *Ancient and Middle Iranian Studies: Proceedings of the 6 th European Conference of Iranian Studies, Held in Vienna, 18-22 September 2007*, Wiesbaden: Harrassowitz Verlag. 2010. P. 133-148.

boʻlgan va hech qachon “gʻalati va tahqirli” deb hisoblanmagan. Maqolada oʻtgan asrda yozilgan ilmiy adabiyotlarda zardushtiylar jamiyatining salbiy manzarasini keltirib chiqaradigan omillar bilan bogʻliq tahlillar yoʻq. Bu asosan madaniy tafovutlar tufayli yuzaga kelganga oʻxshaydi. Doktor Mahmud Emami Namin Sosoniylar tarixini oʻrganuvchi sharqshunoslar “gʻarb madaniyati” vakillari boʻlgani sababli bu masalalarga oʻz mentalitetlari madaniyatlaridan kelib chiqib qaragan degan xulosaga kelgan. Shuning uchun ular zardushtiylik tamoyillari asosida boshqariladigan jamiyatning islomgacha boʻlgan taʼriflarini aks ettiruvchi mentalitetini tushunmaganlar. Ularning axloqiy bahosi va manbalarni talqin qilish ular tarbiyalangan qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi. Shuni taʼkidlash kerakki, tadqiqot turli nikoh turlarining huquqiy jihatlari, moliyaviy sharoit yoki bolalar huquqlari bilan bogʻliq juda qiziqarli qismlarni oʻz ichiga oladi⁵⁰.

Osiyodagi eng yirik davlatlardan biri sifatida 400 yildan ortiq vaqt davomida jahon siyosatini belgilovchi mavqeʼda boʻlgan Sosoniylar davlati shahanshohlari tomonidan qoʻllab-quvvatlangan zardushtiylik huquqiy majmualari nisbatan mukammal shakllangan. Sosoniylar jamiyati gender qurilishiga asoslangan patriarxal boshqaruv edi. Ijtimoiy amaliyotning patriarxal qurilishi din tomonidan qonuniylashtirilganligi sababli, sosoniylar davrida ayollar huquqlarining asosiy cheklanishi erkak vasiyga oʻtish majburiyatida aks etgan. Katarzina Maksimiyuk oʻz tadqiqotida zardushtiylar ayollarning nikoh ittifoqidagi huquqiy holatini tahlil qilish asosida sosoniy ayollarning fuqarolik huquqlari muammosi koʻrib chiqqan⁵¹.

Umuman olganda zardushtiylikda ayollarga munosabat va gender masalasi soʻngi yigirma yilda yanada qizgʻin muhokamalarga aylangan mavzulardan biridir. Shuningdek, ushbu mavzuning turli qirralari Zamaneh

⁵⁰ Mahmoud Emami Namin. Legal status of women in the Sassanid's Era (224–651 AD). Article: Published online: 13 Nov 2018. Cite this article <https://doi.org/10.1080/23311983.2018.1540962>

⁵¹ Katarzyna Maksymiuk | (2019) Marriage and divorce law in Pre-Islamic Persia. Legal status of the Sassanid' woman (224-651 AD), Cogent Arts & Humanities, 6:1, 1703430, <https://doi.org/10.1080/23311983.2019.1703430>

Mofidi⁵², Zahro Husayniy, Mahshid Mirfaxroyi⁵³, Zaynab Yazdxvosti, Maryam Yazdxvosti⁵⁴, Behrah Jamoliy, Mirmuhammad Hasani, Mehrnoz Behruzi⁵⁵, Mohadese Malek, Yaghōb Mohammadifar⁵⁶ kabi ko‘plab eronlik tadqiqotchilarning ishlarida tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda ham 1990-yillar o‘rtalaridan gumanitar fan sohasi vakillari gender tarixi bilan shug‘ullana boshladilar. 2003-yilda “Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi” chop etildi⁵⁷. Kitobda gender nazariyasi va feminizmning asosiy tushunchalari va atamalari, gender tadqiqotlarining nazariy-uslubiy asoslari bo‘yicha G‘arbda mashhur bo‘lgan asarlardan parchalar o‘zbek tiliga tarjima qilib berilgan⁵⁸. Biroq bevosita mavzu bilan bog‘liq, zardushtiylik yoki biror diniy jamoa doirasida gender masalasiga oid tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Faqatgina R.O‘razovning tadqiqotlarida zardushtiylikda ma‘budalarning funksiyalari va ijtimoiy-tarixiy mohiyati doirasida gender masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqotchi Avesta “Goh”laridagi ayol ilohiy obrazlarni qiyoslash orqali zardushtiylikda ma‘budalarga yuklangan vazifalar jamiyatning reproduktiv faoliyatiga, oilaviy farovonlikka, sog‘lom turmush tarziga, fayzu barakaga, umuman tabiat va jamiyat mutanosibligiga qaratilganligini zardushtiylikda ayollar mavqeining o‘ziga xos ko‘rsatkichi sifatida talqin etgan⁵⁹.

⁵² Zamaneh Mofidi. The common elements in marriage and divorce laws of late Zoroastrian/ Sasanian family law and early muslim jurisprudence in Mesopotamia. A thesis in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree. Master of Arts in Religious Studies. Presented to the Department of Religious Studies. California State University, Long Beach. May, 2018. 125 p.

⁵³ زهرا حسینی، مهشید میرفخرایی. سالاری زن از مجموعه هزار قضاوت. پژوهشکده زنان دانشگاه الزهراء. پاییز و زمستان 1395، صص: 58-86.

⁵⁴ زینب ایزخواستی، مریم ایزدخواستی. سابقه و ساختار پوشش زنان از دوران ایران باستان تا اسلام. فصلنامه علمی پژوهشی زن و فرهنگ. سال چهارم. شماره سیزدهم. پاییز 1391. صص. 71-86.

⁵⁵ بهرخ جمالب، میرامحمد حسنی، مهرناز بهروزی. جایگاه اجتماعی زنان در دوره ساسانی (به استناد مهرها و اثر مهرها). هنر اسلامی، 17 (39). صص. 121-158.

⁵⁶ Mohadese Malek, Yaghōb Mohammadifar, A Study of the Imagery and Place of Women in the Sasanian Period: Sigillographic Evidence. Sasanika Archeology. № 14, 2013. 3-21.

⁵⁷ Гендер тадиқоти асослари курси хрестоматияси. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2003.- 411 б.

⁵⁸ Shadmanova S. Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari. – Toshkent.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 216 b. (B. – 121-124.)

⁵⁹ Урабова Р.Т. Зардуштийликда маъбудаларнинг функциялари ва ижтимоий-тарихий моҳияти // тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент Ислон унивеситети. – Тошкент. 2017. – 22 б.

Xulosa qilib aytganda, zardushtiylikda ayollarga munosabat masalasi ushbu din vujudga kelgan davrdanoq diqqat markazida bo'lgan. Avestaning Videvdat kitobida bu masalaga alohida bob (fragardlar) ajratilgan. Gender tarixi fanga alohida yo'nalish sifatida kirib kelgach zardushtiylikning aynan shu yo'nalishi bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar guruhi shakllandi. Shunga qaramay zardushtiylikda ayolga munosabat masalasi bahsliligicha qolmoqda. Tadqiqotchilarning mavzuga majmuaviy yondoshmasdan, sohalar bo'yicha manbalarni talqini ayrim hollarda bir-biriga mutlaqo zid xulosalarni taqdim etmoqda. Masalan, feministik nuqtai nazarga asoslanuvchi tadqiqotlarda zardushtiylikda ayolga munosabat patriarxal g'oyalar ta'siridagi zulmga asoslangan deb hisoblasa, zardushtiylikni e'tiqodiy yondashuv bilan o'rganuvchi zardushtiy dindor ulamolar o'z asarlarida ayollarga oid ziddiyatli ma'lumotlarni ilohiy masalaga bog'lash bilan izohlashadi. Fikrimizcha zardushtiylik uch mingdan ziyod davom etayotgan tarixi davomida zamon va makon ta'sirida ziddiyatli yondoshuvlarni o'zida aks ettirgan.

II- BOB. AVESTADA AYOL OBRAZI VA UNGA QO‘YILGAN IJTIMOIIY-HUQUQIIY MEZONLAR

II.1. Avestada ayol obrazining ilohiylashtirilishi

Zardushtiylik diniy matnlarida namunali ayolning xususiyatlari va to‘g‘ri xulq-atvori aniq me‘yorlarga ega bo‘lib, uning belgilari diniy manbalardan tashqari axloqiy-tarbiyaviy adabiyotlar va yozilmagan qoidalar bilan belgilangan. Ushbu umumiy qoidalarni zardushtiylik dinida ayollarga qo‘yilgan ilk mezonlar deb qabul qilish mumkin. Uning asosi insoniyatning nasl-nasab va poklik xususiyatlari asoslariga oid Zardushtning samoviy Gohlaridagi vahiya asoslangan. Ushbu ilk aqiydaviy parchalar bir-biridan farqlanuvchi murakkab mazmun-mohiyatni aks ettiradi. Ulardan ba‘zilari hayotiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyat a‘zolarining biologik xatti-harakati va hayoti bilan bog‘liq hamda o‘ziga xos va turli xil shakllarda ko‘p marta takrorlangan. Xuddi doston yoki muqaddas matnlarning tafsirida keltirilgani kabi. Namunali yaxshi ayolning ijtimoiy, rasmiy va mavjud turmushdagi xulqiga oid har bir parcha o‘z o‘rnida muqaddas matnlarda qayd etilgan vahiylarga tayanadi.

Zardushtiylik aqiydasidagi namunali ayol qiyofasi va uning xulq-atvorining asosiy xususiyatlarini ifodalovchi mezonlar xuddi boshqa dinlarning muqaddas matnlarida ayollarga qo‘yilgan mezonlarga o‘xshashdir: ayol naslni davom ettiruvchi muqaddas siymo sifatida oila bekasi bo‘lishi, farzand dunyoga keltirishi va uni tarbiyalashi lozim bo‘lgan. Bunday biologik xulq-atvori bilan ayol erining yordami va qo‘llab-quvvatlashidan bahramand bo‘lgan, jamiyat esa erkakni tirikchilikni ta‘minlashga majbur deb hisoblagan, yoki pahlaviy matnlardagi ibora tili bilan aytganda xotini va bolalari uchun “kuyib pishgan”. Bu umumiy yo‘nalishlardan tashqari, o‘sha qadimiy davrdan bizgacha yetib kelgan oz sonli matn va ta‘limotlar, garchi ular diniy tushuncha va g‘oyalarning yagona guruhini yaratsa-da, bir-biriga to‘liq mos kelmaydi. Ulardagi qarama-qarshilik va ziddiyatlar bu boradagi diniy g‘oyalarning rang-barangligini,

shuningdek, ijtimoiy g'oyalarning turlicha talqin qilinishi natijasi, hamda davrlar o'tishining tabiiy natijasi bo'lib, bu g'oyalarning tarixiy evolyutsiyasini ham ochib beradi. Bu o'rinda qadimgi Erondan bizgacha yetib kelgan barcha yozma asarlarni sanab, hammasini asosan Zardushtga, Maniy va Mazdakka nisbatlovchi hozirgi an'analardan chetga chiqib, yozma manbalarning turli qadriyatlariga qisqacha to'xtalib o'tish zarur.

Asosan, zardushtiy bitiklar nomi bilan mashhur bo'lgan matnlar Avesta va pahlaviy yoki o'rta fors va zardushtiylik fors tillarida yozilgan bo'lib, bu uch davr: qadimgi, o'rta va yangi davrni ko'rsatadi. "Avesta"ning o'zida ikkita sheva bor: "Gohlar" va "So'nggi Avesta". Zardushtning samoviy vahiylari Gohlarda aks etgan bo'lib, "Avesta"ning boshqa qismlarida kelgan aqiyda ba'zi farqlarni hisobga olmaganda Gohlarga deyarli to'liq mos keladi: qadimgi ariy ilohiyotiga oid ibodat matnlari, ijtimoiy hayot va ma'muriy-idoraviy ishlar va qonunlar, qadimgi bilim va ilm-fan, shuningdek, uzoq asrlar davomida odamlarning fikri va e'tiqodlarini aks ettiruvchi g'oyalar bo'lib ularning barchasi sosoniylar davri "Avesto"sida aks etgan edi va bugunga qadar ularning deyarli to'rtidan bir qismi saqlanib qolgan. Ushbu matnlarning talqinini pahlaviy tilidagi diniy adabiyotlardan topish mumkin. Hikoya va xabarlar hamda umuminsoniy bo'lgan hikmatlardan tashqari, pahlaviy tilida Avestoda saqlanib qolmagan diniy matnlarni ham topish mumkinki, ularning manbasini va kelib chiqishini topish imkonsizdir.

Zardushtiylikning tenglik g'oyalari, xususan, ayollarni "yovuzlikka qarshi umumiy kurashda erkaklar sherigi" deb e'tirof etish⁶⁰ uzoq vaqt davomida mazdayasniy jamiyatida ayollarning munosib mavqe'ga egaligidan dalolat beradi. Gender tengligi haqidagi bunday tushunchalar "Avesta" ta'limotida mustahkam ildiz otgan va ilk eroniylar jamiyati xarakterini aks ettiradi⁶¹, shuningdek, "bu qadimiy dinga zamonaviy qiyofa" baxsh etadi⁶².

⁶⁰ Boyce M. *A History of Zoroastrianism* I, Leiden, 1972. P. 308, fn. 83.

⁶¹ Schwartz M. "Women in the Old Avesta: Social Position and Textual Composition," *Bulletin of the Asia Institute* 17, 2007, p. 4.

Avesta maxsus uslubga ega, matnda, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikka oid ma'lumotlar maxsus so'zlar va so'z birikmalari yoki davriy xususiyatga ega iboralardan foydalanish orqali ifodalangan. Yasna Haptahaitida *nar-* “erkak” va *nāirī-* “ayol” so'zlari to'rt marta qo'shilib kelgan: ikki marta *nā vā nāirī vā* va “erkak yoki ayol”⁶³ turg'un iborasining bir qismi sifatida va ikki marta *narqmcā nāirinqmcā* “erkaklar va ayollar”⁶⁴ shaklida. Gohlarda “ayol” ni ifodalash uchun “erkak” (*nar-*) so'ziga muqobil– *jaini-* so'zi qo'llanilgan, *iθā ... narō aθā jānāiō* – “shunday qilib... erkaklar ham, ayollar ham” iborasi tarkibidagi odatiy so'z sifatida qarama-qarshi qo'yilgan⁶⁵. Bundan tashqari, Yasna Haptanhaiti va Goh matnlari ham *gānā-* so'zidan ayollarga nisbatan foydalanilganini ko'rish mumkin. Faqat, bir marta alohida holatda – *vā ... nā gānā vā* iborasida *nar-* “erkak” so'zining yonida *gānā* – “olijanob ayol” atamasi uchraydi⁶⁶. Aksariyat tarjimonlar buni “erkak yoki zodagon ayol” deb tarjima qiladilar va *gānā* - so'zini ayol jinsidagi insonga nisbatan qo'llanilgan so'z sifatida qabul qiladilar⁶⁷. Aksincha, Y. 38.1-dagi ikkita holatda *gānā* – so'zi “erkak” so'zi bilan so'z birikmasi sifatida birlashmaydi va buning o'rniga ilohiy ayollar sifatida antropomorfizatsiyalangan mavhum timsollar yoki mavjudotlarga ishora qiladi (bu esa *gānā* – Goh parchasida ham ayol ilohiy mavjudotlarga ishora qilishini bildiradi)⁶⁸.

Shunday qilib, ayol ma'nosini anglatuvchi keng tarqalgan Avesta so'zlari *ghena*, *nāiri* va *nmânô-pāthni*dir. Birinchi so'z etimologik jihatdan “farzandlar dunyoga keltiruvchi”, “ko'taruvchi” yoki “ona” degan ma'noni anglatadi. Ikkinchisi – “erkak”, “er”, “qahramon” kabi jins ma'nosini

⁶² Hintze A. Review of Evil Good and Gender. Facets of the Feminine in Zoroastrian Religious History by J. Choksy, Journal of the Royal Asiatic Society, 2003, pp. 403.

⁶³ Y. 35.6, 41.2.

⁶⁴ Y. 37.3, 39.2.

⁶⁵ Y. 53.6.

⁶⁶ Y. 46.10.

⁶⁷ Humbach H. in collaboration with J. Elfenbein and P. O. Skjærvø, The Gāthās of Zarathushtra and the Other Old Avestan Texts II, Heidelberg, 1991. P. 183.; Kellens J. and Pirart E. Les textes vieil-avestiques II, Wiesbaden, 1990. P239.; Narten J. Der Yasna Haptanhāiti, Wiesbaden, 1986. P. 193.

⁶⁸ Hintze A. A Zoroastrian Liturgy: The Worship in Seven Chapters (Yasna 35-41), Wiesbaden, 2007. P. 196-209.

ifodalovchi soʻzning oddiy ayollikni bildiruvchi shakli – *nêrê* soʻzidir. Uchinchi soʻzma-soʻz tarjimada “uyning xonimi yoki bekasi” maʼnosini bildiradi, chunki “Avesta”da er odatda “uy xoʻjayini yoki boshligʻi” deb ataladi⁶⁹. Shu maʼnoda “Avesta” davrida eroniyalarda xotinning mavqei erining mavqei bilan teng boʻlgan degan taxminga kelishga maʼlum asoslar bor. Ikkinchi dalilni Yt. X. 84-da nikohlanuvchi juftlik uchun *pithê* iborasi mavjudligidan daʼvo qilish mumkin (qarang. Ost. Kultur, 245-bet; Spiegel's Commentary Vol. II., s. 566-567; C. de Harlez., Av. Tr, 236-bet), bu bizga er va xotinning huquqlari va manfaatlari bir xil boʻlganligini va ikkinchisi qul yoki shunchaki “bolalar dunyoga keltiruvchisi” munosabatida emasligini taxmin qilish imkonini beradi. Yasna LXVIII.12 da er va xotin birgalikda Xudoga ibodat qilib yordam soʻrashadi. Zardushtiy ayolning qadimgi eroniyalarda egallagan yuksak mavqei haqida muhimroq fikrlarni bayon qilishdan oldin, men hozirgacha saqlanib qolgan eng qadimgi adabiyotlar toʻgʻrisida chet ellik yevropalik yozuvchilarning aytganlariga eʼtiboringizni qaratmoqchiman. Bu haqda gapiradigan soʻnggi nemis asari “Ostiranische Kultur im Altertum” boʻlib, undan quyidagi parchalarni tarjima qilaman: – “Xarakterli jihati shundaki, qadimgi eroniyalar xonadonida ayol huquqiy va axloqiy mavqeiga koʻra, toʻy kunidan boshlab u eri *nmānō-paiti* – “uyning xoʻjayini” deb ataganidek, *nmānō pathni* “uy bekasi” unvonini oladi. Shunday qilib, xotin eriga qaram emas, balki unga teng hisoblangan. U unga qaram xizmatkori emas, balki uning hamrohi, uning barcha imtiyozlariga ega boʻlib, u bilan birga uy ishlarini bajaradi va xonadonga rahbarlik qiladi.

“Avestada har ikki jins ham doimiy ravishda teng huquqli sifatida namoyon boʻladi; ular ijtimoiy ahamiyati jihatidan tabaqalanmagan. Dindor erkaklar va ayollar odatda birga tilga olingan. Ular bu dunyoda ham, oxiratda ham birga yashab, jannat rohatlaridan bahramand boʻlishadi. Xotinlar uy uchun

⁶⁹ Yt. V. 87; XV. 40.

sharafdir va yaxshi ruhlar, ayniqsa Ahura Mazda, “ayol Yazatalar jamoasida namoyon bo‘ladi.

Avesta matnlarining tadqiqi ayollarga ham aynan erkaklardagi kabi teng axloqiy va diniy vakolat berilganligi haqidagi tushunchadan dalolat beradi. Goh Y. 53.6 matnida erkaklarga ham, ayollarga ham bir xil murojaat qilinadi, *ā.airiiēmā išiiō*⁷⁰ duosi matnida esa mazdayasniylar bunda Airyamandan “zarathushtra (ga ergashgan) erkaklar va ayollari (*nərəbiiascā nāiribiiascā zaraθuštrahe*)” ga yordamga kelishni so‘raydilar. Xuddi shunday Yangi (Yosh) Avestaning 3-Fargardi matnida ham har ikkala jins vakillari bevosita alohida ogohlantiriladi: “O‘z ruhi uchun (hech narsa) yutmagan, hech narsa qozonmagan. U (ayol jinsidagi uchinchi shaxs kishilik olmoshi) o‘z ruhi uchun (hech narsa) yutmagan, hech narsa qozonmagan” (*nōiṭ cahmi zazuua yō nōiṭ urune zazuua. nōiṭ cahmi zazuši yā nōiṭ urune zazuši*)⁷¹.

Zardushtiylikda ayollar va erkaklarning diniy mavqei o‘rtasidagi muhim tenglikka bo‘lgan ishonch Avesta matnlarida ularning jinsidan qat’i nazar, uning solih tarafdorlarini tez-tez maqtash va ulug‘lashda o‘z aksini topgan. Y. 39.2 da shunday deyilgan: “Biz qayerda tug‘ilgan bo‘lishidan qat’i nazar, haqiqatparast erkaklar va ayollarning ruhlariga (urunō) topinamiz” (*aṣāunqm āaṭ urunō yazamaidē kudō.zātanqmcīṭ narqmcā nāirinqmcā*). Y. 37.3 matnida ham erkaklar va ayollarning “(axloqiy) tanlovlarini” ulug‘lanadi: “Biz haqiqatparast erkaklar va ayollarning tanlovi bo‘lgan Unga (= Ahura Mazdaga) sajda qilamiz” (*tām aṣāunqm frauuaṣīš narqmcā nāirinqmcā*). “Kichik Avesta”da bu fikr Yt. 13 parchalarida juda yorqin aks etgan, ushbu yashtning 139-142 bandlarida turli xil sharaflı ayollarning fravashilariga topinish haqida aytilgan bo‘lsa, 143-144 bandlarida “haqiqatparast ayollar” (*aṣaoninqm*) fravashilariga va “haqiqatparast erkaklar” (*aṣaonqm*) fravashilariga sig‘inish haqida so‘z boradi. *aṣauuan-* “to‘g‘ri [bir]” sifatdoshining jinsga xos bo‘lgan bu ikki ko‘plik shaklidan tashqari, “Avesta” uchinchi ko‘plik shakli – Qadimgi Avesta va Yosh Avesta

⁷⁰ Y. 54.1.

⁷¹ Hoffmann K. “The Avesta Fragment FrD.3,” Indo-Iranian Journal 11, 1968. P. 288.

ašāunqm (odatda *frauuaši*- birikmasi bilan birgalikda kelishini ham tasdiqlaydi, masalan, Y. 4.2, 4.6, 24.11, 65.12, va h.k.), E. Tichiga ko‘ra, “solih [erkak va ayol]” degan ma‘noni anglatuvchi jins birikmasi sifatida talqin qilinishi kerak⁷².

Bu dunyoqarashning amaliy natijasi shundan iboratki, qizlar ham, o‘g‘il bolalar ham muqaddas ko‘ylak va belbog‘ kiyish orqali zardushtiylik diniga kirishgan. Shunday qilib, Videvdad 18.54 da “o‘n besh yoshdan oshgan erkak (*nā*) yoki yovuz ayol (*jahika*) muqaddas belbog‘ yoki ko‘ylaksiz yurganida” (*yaṭ nā jahika pasca pañcadasīm sarəḍəm frapataiti anaiβiiāsta vā anabdātō vā*) gunoh amal deb e‘lon qilinadi (qarang: H.-P. Schmidt, 26-bet, Izoh 17, u *johika* so‘zini keyinchalik shakllangan (interpolyatsiya) va shuning uchun ushbu tashabbus dastlab faqat zardushtiy erkaklar uchun amalga oshirilgan deb hisoblaydi)⁷³.

Gohlarda ayollarga bir-birini to‘ldiruvchi ikki nuqtai nazardan yondashilgan: biri zardushtiylik dinini qabul qilgan ayol, ikkinchisi esa ijtimoiy hayotda alohida o‘rin va mavqega ega bo‘lgan insonning ikki turidan biri sifatida. Birinchi holat ayolning vijdoni bilan bog‘liq bo‘lib, u dinga kirganlarning yarmi sifatida tanilgan. Zaratushtra uni Tafakkur qilishga va o‘z dinini tanlashga chaqiradi. Ikkinchi nuqtai nazardan, u ijtimoiy guruh a‘zolaridan biri bo‘lib, oilada qiz, xotin va ona sifatida alohida rol o‘ynashi kerak. Bu yerda ayol zimmasiga farzand dunyoga keltish va tarbiyalashning tabiiy va biologik mas‘uliyati, jamiyat barqarorligi, nasl va inson zotining omon qolishi uchun javobgardir. Ayolning vijdoni o‘z fikri, donishmandligi va bilimiga tayangan holda o‘ziga mos keladigan narsani tanlashda erkindir, lekin jamiyatda ulg‘ayib, unda kamol topish va boshqalar bilan yashash zarurati uni ijtimoiy me‘yorlarni qabul qilishga va ularga bo‘ysunishga bog‘laydi va ma‘lum ma‘noda ijtimoiy-ma‘naviy cheklovlar belgilaydi.

⁷² Tichy E. “Vedisch ṛtāvan- und avestisch ašauuan-,” *Die Sprache* 32, 1986. P. 102.

⁷³ Schmidt H.-P. *Some Women’s Rites and Rights in the Veda*, Professor P.D. Gune Memorial Lectures (second series), Poona, 1987. P. 26.

Yasna 46, 10-bandida odamlarni haq soʻzni tushunishga va qabul qilishga chaqirgan Zaratushtra Chinvod yoki Sirat deb nomlangan koʻprikdan yaxshi odamlar bilan birga va ular bilan bogʻliq holda yaxshilar joyiga oʻtishga vaʼda beradi va jannat yoki behishtga erishishni targʻib etadi. Chinvod shunday koʻprikki bu joy vijdon tanlovini, inson yaxshi yoki yomonni tanlaganini koʻrsatadi:

Ey Ahura Mazda! Rostini soʻzlayman: xoh er, xoh ayol – kim boʻlmasin,
Sen tiriklikda eng solih deb bilgan narsani tanlasa,

Ezgu niyat yorugʻligida Ashah – Haqiqat va Olam Shahriyorning marhamatidan ogoh boʻlgaydir.

Men shunday zotlarni Sening toatingga chorlagayman va ularning barchasini hakamlik koʻprigi (Chinvatu Peretu)dan olib oʻtgayman.

Bu yerda erkaklar ham, ayollar ham bir vaqtning oʻzida Paygʻambarning yonida paydo boʻlib, har kim oʻz yoʻlini tanlashi uchun ulugʻ ibodatda ishtirok etishga intiladi.

Ushbu matnga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, har gal matnda odamlarga qarata umumiy maʼnoda murojaat etilganda, erkaklar ham va ayollar ham nazarda tutilgan, deb qabul qilish mumkin, masalan, Yasan 34 ning, 7-bandidagi “Sening rodrlaring qayerda, ey Mazda?” yoki xuddi shu yasnaning 5-bandida “Sening sigʻinuvchilaring” iborasi keladi, bu oʻrinda rodrlar va sigʻinuvchilar deganda ham har ikkala jins vakillari koʻzlanganini anglash qiyin emas. Yaʼni avesta tilida ot gramatik kategoriyasi erkak, ayol va neytral jinsni ifodalashi mumkin boʻlib, mantning mazmunidan jinsning mohiyatini anglash lozim boʻladi. Pahlaviy tilidagi sharhlar va forscha tarjimalarda bu hol aks etmagan.

Gohlarning sheʼriy va majoziy ifodali bayonlarida tasvirlangan Hurmuzd maʼnaviy ota qiyofasida ifodalangan. U Ezgu oʻy va Haqiqatning otasidir (Y. 44.5), ezgulik timsoli boʻlgan – Sepandarmaz ham uning qizi hisoblandi (Y.40.5.). Hurmuzd mohiyatining tajallisi hisoblanuvchi va keyinchalik

barhayot (o'lmas) azizlar yoki oliy farishtalar sifatida mashhur bo'lgan Amesha Spentalarning uchtasi: Ezgu o'y yoki Bahman, Ezgu haqiqat yoki Ardabehisht, Samoviy hokimiyat yoki Shahrevan (Shahriyor) erkak timsolida, qolgan uchtasi: Muqaddas savob yoki Sepandarmaz, Komillik yoki Xurdod, Abadiylik yoki Amurdodlar ayol timsolida tasvirlangan. Ushbu majoziy timsollarning tasvirida ham ikkala jins orasidagi tenglik g'oyasi e'tibordan chetda qolmagan. Pahlaviy matnlar Sepandarmazni Bovandag menisnih, ya'ni axloq va tafakkurda komillik, to'kislik yoki qalb sog'ligi deb ta'riflaydi. Denkardda Hurmuzd va Spendarmaz o'rtasidagi munosabat oqillik va haqiqat kotibi munosibatida g'aydalanadi, zero aql va haqiqat kotibligi doim yonma-yon keladi, shu nuqtai nazardan ularning ota va qiz sifatida tasavvur etilishiga sabab bo'lgan⁷⁴.

Jamiyat a'zosi hisoblanuvchi ayollarga qo'yilgan maxsus vazifalar 53-Yasna matnida keltirilgan Zaratushtra vahiyalarida o'z ifodasini topgan. Ushbu matnda Zaratushtra o'zining eng yosh qizi Puruchistani chaqirib, maslahatlashi, u bilan turmush qurmoqchi bo'lgan Jomaspni o'ziga umr yo'ldoshi bo'lishga munosib ko'rishi yoki ko'rmasligini so'raydi, va matnning davomida kelajakda oila qurmoqchi bo'lgan yoshlarga sadoqatli mustahkam oila qurish uchun o'z nasihatlarini bayon etgan:

Ey, Puru Chista Xaechataspana,
Zaratushtraning kenja qizi, bo'yi yetgan suyuqlisi,
Ezgu o'y sharafi-la, Mazda irodasi deb bil.
Jufting bilan bog'lan aqlingga muvofiq,
Bo'l ezgulik yo'lida, ezgulik namoyon qil⁷⁵.

Ha, men buni sizning guvohligingizda turmushga beraman, tokim ota, er, qaynota va qarindoshlar roziligiga erishsin. Agar taqvodor er yonida taqvodor ayol yelkama-yelka tursa, Ahura Mazda pokiza vijdoni tufayli uni ezgu axloqning porloq nuri bilan siylaydi⁷⁶.

⁷⁴ The Complete Text of the Pahlavi Dinkard, ed. By D. M. Madan, Bombay 1911, P.922.

⁷⁵ Y.53.3.

⁷⁶ Y.53.4.

Turmushga chiqayotgan qizlarga hamda kuyovlarga aytar soʻzim bor. Ularni ham dilingizga joy aylang. Vijdoningizga tayanib oʻzingiz va umr yoʻldoshingiz uchun halol nafs yoʻlini tanlangiz! Har biringiz haqiqat yoʻlida bir-biringizdan oʻzib ketishga intiling, zero, bu shubhasiz barchangiz uchun ulkan mukofotga aylangay⁷⁷.

Ey erkaklar va ayollar, shubhasiz aynan shundaydir: agar yolgʻondan manfaat izlasangiz, yolgʻon zaruratga aylanadi...⁷⁸.

Matnning davomida Zaratushtra Yolgʻon izdoshlarining muvaffaqiyatlari muvaqqat va zaif ekanligini, abadiy va bitmas saodat esa solih va pok zotdan ekanligini taʼkidlagan. Ezgu ruhiy bogʻlanishga oid ushbu alqov Yasna tarkibiga kiruvchi Gohlarning oxirgi qoʻshigʻida “eng ezgu tilak” soʻzlari bilan boshlangan. Haqiqat va ezgu tafakkur nuridan muyassar boʻlgan ushbu ezgu tilak mukofoti abadiy shodlikdir. Kelinning ismi “haqiqat bilimining yuksak egasi” sifatida, kuyov esa bilimdonlik va cheksiz hikmat sohibi boʻlgan dono er ramzini ifodalaydi, ularbu toʻyning ramziy tarkibiy qismlari boʻlib, shubhasiz bu haqda koʻplab suhbatlar bayon etilgan.

Aytilgan rivoyat va Gohlardan keltirilgan misollardan shunday xulosa qilish mumkinki, Zaratushtra vahiylari ijtimoiy institutlar va ularning eski tuzilish tartiblarini yangilashni yoki ijtimoiy guruhlar tuzulishi va ularning oʻzaro munosabatlarini oʻzgartirishni emas, balkim odamlarning ruhiyatini isloh etish orqali, shaxslararo munosabatlarni yaxshilashni maqsad qilgan. Yasna 3 ning 3-bandida ochiq keltirilgan: Puruchistaning otasi va otalik oilasiga munosabati hamda otasining uni turmushga berishdagi faoliyati Zaratushtra davri katta oilalari va qadimiy ariylar patriarxal oilasining tuzilishi va maʼnaviy muhitining yorqin ifodasidir. Taʼsiri hozirga qadar saqlanib qolgan ushbu oilaviy anʼana hin-yevropa oila institutining ijtimoiy qadriyatlariga borib taqaladi. Unga koʻra ayolning vazifasi otasi, eri va boshqa yaqin qarindoshlarining roziligiga erishish boʻlsa, xonadoni, xotini va farzandlarining

⁷⁷ Y.53.5.

⁷⁸ Y.53.6.

barcha ehtiyojlarini qondirish va boshqarish erining vazifasi sanalgan. Shu sababdan atrofdagi boshqa madaniyatli qabilalar va turli tuzilishdagi oilalar zardushtiylik dinini qabul qilishlarida diniy ta'qiq va to'siqlarga uchramadilar va o'zlarining qadimiy odatiy boshqaruvlariga o'zgartirish kiritishga ehtiyoj sezmagani.

E'tiborli jihati, keltirilgan matnlarda erkak va ayollar o'rtasidagi bog'liqlikning ma'naviy va insoniy jihatlarining ahamiyati, hamda xayrli ishlar qilishda, ma'naviy savob topishda har ikkala jins vakillarining teng imkoniyatga egaligining alohida qayd etilganidir. Biroq, ushbu hamohanglik va hajihatlik Yasna 46 ning, 10-bandida ishora etilganidek bu bir vaqtning o'zida osongina unutiladi. Erkaklar uchun unga rioya qilish qiyin, ayollar esa o'ziga xos amaliy va tabiiy majburlash sifatida zo'ravonlik kuchiga bo'ysunadilar va tenglik da'vosiga ojizlik bilan e'tibor bermaydilar. Yozma manbalarning guvohligiga ko'ra, xususan Gohlarda nazarda tutilgan erkaklar va ayollar maqomining tengligi g'oyalari, vaqt o'tishi bilan asta-sekinlik bilan pasayib boradi va biz qadimiy matnlardan keyingi davrlarga o'tib borgan sari, erkaklar mavqe'ining kuchayib borishini, aksincha ayollarning qadr-qimmatini pasayishini kuzatamiz.

Avestada ayollar ham erkaklar kabi diniy ta'lim olishgani aniq ko'rsatilgan. Buning isboti Y. 26.7 da ochiq ko'rsatilgan, bu yerda "o'rgatuvchi, o'rganuvchi - erkaklar [va] ayollar" (*aēθrapaitinām aēθriianām narām nāirinām*) ning "tanlovlari" (*frauuašis*) e'zozlanishi ta'kidlangan. Bundan tashqari, Vr. 3.4 (va Gah 4.9) *huš.hām.sāsta*- "yaxshi ma'lumotli" bo'lgan "ayol" (*nāirika*-)ni tayinlash istagi (qarang. Hintze, 2007, p. 199, fn. 10, v. Bartholomew, kol. 1842, sv *huš.hām.sāsta*- "tanbeh berish oson, boshqarish mumkin")⁷⁹ xuddi shu oyatda *vistō.fraorāiti*- "e'tirofni bilish" bo'lgan "odam" (*nar*-)ni tayinlash istagi bilan parallellik mavjud.

Shuningdek, *Hērbedestānda*, aθauruna - "kohinlik xizmati" faoliyati uchun kimning ta'lim olishi ma'qulroq ekanligi muhokama etilgan. Matnda bu

⁷⁹ Hintze A. A Zoroastrian Liturgy: The Worship in Seven Chapters (Yasna 35-41), Wiesbaden, 2007. P. 199.; Bartholomae C. Altiranisches Wörterbuch, Straßburg, 1904.

vazifa bilan xonadon bekasi (*nāirikā-*) yoki uy sohibi (*nmānō.paiti-*) shugʻullanishi mumkinligi, tanlangan tomon “haqiqatni eng oliy darajada hurmat etuvhi” (*ašāi barajiiqstemō*, H. 1.2) va uy xoʻjaligini boshqarish uchun kamroq masʼul boʻlgan oila vakili nomzodi maʼqulroq ekani taʼkidlangan⁸⁰. Demak, “Avesto” davridagi ayollarning taʼlim-tarbiyasi baʼzi sharhlovchilar taʼkidlaganidek, “uy bekasi roli”ga tayyorlanishdan tashqari chuqurroq tushuncha ekanligini tushuniladi⁸¹. Y. 35.6 matnidan “haqiqatning nimaligini biladigan” “erkak yoki ayol” (*nā vā nāirī vā*)ni ragʻbatlantiradi (*vaēdā haithīm*) va “haqiqiy ezgulik” (haṭ vohū) ni “shunday qilib amal qiladiganlarga yetkazish” uchun (*fracā vātōiiōtū īt aēbiiō yōi īt akā varaziqn*) masʼul ayollar (erkaklar kabi) taʼlimdan tashqari zardushtiylik taʼlimotini yoyishda ham ishtirok etganini bilish mumkin. Ushbu diniy aqidani yoyish majburiyati aauruna bilan shugʻullangan ayollar va erkaklar zardushtiylik missionerlari sifatida harakatiga oid M. Boysning fikriga ham mos keladi⁸².

Zardushtiy ayol taqvodor erkaklar egallagan eng yaxshi fazilatlariga erisha olgan. “Biz oʻyi, soʻzi va amali toʻgʻri boʻlgan, mukammal tarbiyasiga koʻra hurmat-ehtiromga loyiq (*hūsh-hām-sāstām*), eriga itoatkor, iffatli, Armaiti va boshqa ayol farishta (Iloh) lar kabi oʻz homiy (yaʼni, ota-ona) siga sadoqatli solih ayolni hurmat qilamiz (Gah. IY. 9)⁸³ bagʻishlanganligi sababli). “U (yaʼni iffatli qiz) taqvoga yoʻgʻrilgan oʻy, haqiqatga asoslangan soʻzlar, savobga eltuvchi amallarga singib ketadi (Yt. XI. 4).” Shunday qilib, zardushtiy qiz butun taʼlim davomida otasining uyida tarbiyalangan va barcha maishiy

⁸⁰ Hintze A. “Disseminating the Mazdayasnian Religion: An Edition of the Avestan Hērbedestān Chapter 5,” in *Exegisti monumenta: Festschrift in Honour of Nicholas Sims-Williams*, ed. Werner Sundermann, Almut Hintze, and François de Blois, *Iranica* 17, Wiesbaden, 2009. P. 188.

⁸¹ Gould K. “Outside the Discipline, Inside the Experience: Women in Zoroastrianism,” in *Religion and Women*, ed. Arvind Sharma, New York, 1994. P. 150.; Sanjana D. *The Position of Zoroastrian Women in Remote Antiquity*, Bombay, 1892. P. 17-19.

⁸² Boyce M. “Āθravan,” in *Encyclopedia Iranica* III, 1989, pp. 16-17.; Hintze A. “Disseminating the Mazdayasnian Religion: An Edition of the Avestan Hērbedestān Chapter 5,” in *Exegisti monumenta: Festschrift in Honour of Nicholas Sims-Williams*, ed. Werner Sundermann, Almut Hintze, and François de Blois, *Iranica* 17, Wiesbaden, 2009. P. 189.

⁸³ Qarang. Manu, IX. 29 :—“Kim oʻz fikrini, gapini va xatti-harakatlarini nazorat qilib, xoʻjayini oldidagi burchini buzmasa, u bilan (oʻlimdan keyin) jannatda yashaydi va bu dunyoda solihlar sodiq xotin deb ataladi”.

ehtiyojlarga tayyor bo'lgan, ayni paytda uning ongi adolat, to'g'rilik va haqiqatning asosiy tamoyillarida izchil rivojlanib borardi.

Qadimgi eroniylar tasavvurida go'zal ayol oppoq chehrali, sarvqomat baland bo'yli, xipcha bel, shahlo ko'z va mayda nozik barmoqlardan iborat edi. "Keyin chiroyli, jismonan baquvvat va baland bo'yli qizga yaqinlashadi.". Hadôkht Naskda "o'n besh yoshli go'zal, yorqin, oq qo'lli, baquvvat, uzun, baland bo'yli, ko'kraklari ko'zga ko'ringan, sarvqomat, olijanob, ko'zni qamashtiruvchi chehrali" deb tasvirlaydi. Ayollar homiysi Ardvi "to'rtburchak tilla sirg'alar, go'zal bo'yniga tilla taqinchoq, beliga tor kamar bog'lagan".

"Avesta" sahifalarida muqaddasligi, donishmandligi, qahramonligi yoki vatanparvarligi uchun abadiylashtirilgan shaxslar ro'yxatida biz ehtirom bilan qayd etilgan qizlarni uchratamiz. Farvardin Yasht 141-bandida "muqaddas qizlar *Vadhût, Jaghrûdh, Franghâdh, Urûdhayant, Paêsanghanu, Hvaredhi, Huchithra, Kanuka,*" va "muqaddas qizlar *Srutat-fedri, Vanghu-fedri va Eredat-fedri*" esga olinadi - (Yt.141). Biz bu qizlarning bir-birlari bilan o'zaro xayrixohlikda erishgan xayrli ishlari haqida hech qanday tafsilotni bilmaymiz, lekin ularning nomlari avlodlardan avlodlarga o'tib, Zaratushtra, Frashaostra, Jamaspa, Maidhyomaungha, Uzava, Husrava va boshqalarning nomlari bilan birga xalq marosimlarida o'qilgan. "Avesta"dan bilib olamizki, ilk zardushtiylik davrida taniqli qizlar, shuningdek, zardushtiylikning keng targ'ib etilishiga xayrixoh ayollarning ismlari mashhur erkaklarning nomlari bilan birga tilga olingan yoki abadiylashtirilgan.

II.2. Avestada ayollar bilan bog'liq masalalar

Avesta yaratilgan davridagi eroniylar orasida qizlar unchalik ham qadrlanmagan. Garchi ular ota shajarasini ko'paytirishda o'g'illarchalik asosiy vositachi bo'lmagan bo'lsalar ham, ular ham mehr va muhabbat ob'ekti bo'lib, zardushtiylikda yuqorida qayd etilgan diniy maqsadga erishishda yordam berishga intilishardi. Avestada ota-onaning qiz tug'ilishidan noroziligi haqida

hech qanday ma'lumot yo'q. Boshqa tomondan, kanya nomi ota-onaning unga bo'lgan katta mehrini ko'rsatadi.

Barcha jamiyatlarda bo'lgani kabi ijtimoiy munosabatlarda, oilaviy munosabatlardagi ma'naviy va madaniy vazifalar zardushtiylik e'tiqodidagi ayollar uchun ham tabiiy va eng muhim vazifalar hisoblanadi. Ayolga munosabat qiz bola, o'smir qiz, xotin, ona shaxsida gavdalanadi. Zardushtiy qiz qonining tozaligini saqlash uchun onaning ko'krigidagi sut bilan tarbiyalangan. Dastlabki ikki yil davomida u sutli parhez bilan oziqlangan. Dastlabki ko'rsatmani onaning o'zi bergan ko'rinadi. Yetti yoshga to'lgunga qadar muntazam mashg'ulotlar o'tkazilmagan. "Bolaga yetti yoshga kirguncha gunohga kirmagan" hisoblangan⁸⁴. Shu sababli, ota-onalar qizini yetti yoshga to'lmasdan oldin Sudra va Kusti bilan ta'minlamasliklari kerak edi. Taxminan o'sha paytlarda qizi Airpatastanga, diniy maktabga kirgan, u yerda ota-ona e'tiqodining katexik elementlaridan ta'lim berilgan. Boshlang'ich diniy kitoblar uning maktab ta'limining asosini tashkil etgan. Uni uy vazifalarini bajarish uchun malakali qilib tarbiyalash deyarli butunlay onaga yuklangan vazifa edi.

Yettinchi yil o'tganida, o'g'il yoki qiz yaxshi va yomonni, to'g'ri va noto'g'rini ajrata olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak edi. Yetti yildan so'ng muqaddas belgilarning taqdim etilishi qizning zardushtiy sifatidagi umumiy diniy burchlarini munosib tarzda bajarilishiga undaydi. Avestada ham pahlaviy adabiyotlarda ham qizning ota xonadonidagi mavqei haqida bilvosita yoki uzoqdan ishoralar mavjud. Axloqiy va diniy ko'rsatmalarga, oddiy sanitariya qoidalariga⁸⁵, xonaki hayvonlarini parvarishlash uquvi⁸⁶, kiyim-kechaklar, shuningdek, muqaddas belbog'ni yigirish va to'qishga o'rgatish⁸⁷, daladagi ishlarni nazorat qilish⁸⁸ va sigirlarni sog'ish (Avestada *dughdhar*) ko'rinib turibdiki, qizlarga kerak bo'ladigan asosiy malakalar sanalgan. Ayollar jamoatda

⁸⁴ Dinkard. IV jild; 263-bet.

⁸⁵ Vend. VII, 60—72.

⁸⁶ Y. XXIII. 3.

⁸⁷ Vend. V. 67, Yt V. 87.

⁸⁸ Y. LXVIII. 12

ham, shaxsiy oilaviy hayotida ham u o'z yutuqlarini namoyish etish erkinligidan zavqlangan. Uydagi mashg'ulotlar orqali u uy vazifalarini bajarish va xonadon va jamoat marosimlarida qatnashish malakasiga ega bo'lgan; bir so'z bilan aytganda, u kelajakda erining quvonchi bo'lishga intilgan⁸⁹. Avestaning asosiy axloqiy va diniy qoidalari uning ongida muhrlangan. U saxovatli, rostgo'y, xudojo'y, hammaga mehribon, xudoga shukr qiluvchi, solih, qanoatli, xo'jayiniga yoki eriga itoatkor, sodiq va mehnatkash, aqli, so'zi va ishida taqvodor bo'lishi; u o'z va'dalarini bajarishi, hech qanday qarzga ega bo'lmasligi, marhumlarni eslab, ehtirom ko'rsatishi kerak.

Nikohga qadar qiz oila boshlig'i, bobosi yoki otasi, akasi yoki otaning asrab olingan o'g'lining vasiyligida bo'lgan. Kundalik ibodatlarida u zardushtiylikka sodiq erga turmushga chiqishni doimiy so'raydi: "Bizga bu ne'matni bergin ... toki biz navqiron va xushqomad, go'zal xulqli, donishmand hamda notiq erlarga turmushga chiqaylik, toki bizni yaxshi in'omlar bilan siylasin, uzoq umr ko'rib, bizga sog'lom avlod bag'ishlasin"⁹⁰. "Farzandsiz qolgan va yaxshi er kutayotgan go'zal qiz baxtsizdir"⁹¹.

O'n besh yosh erkaklar va ayollar uchun balog'at yoshi hisoblangan⁹². Bu yoshda qizning ota-onasi yoki vasiylari unga mos keladigan juftlikni topishga harakat qilishgan⁹³. "Avesta"da jamiyat to'rt xil kasb - ruhoniylar, jangchilar, qishloq xo'jaligi vakili va hunarmand (?)dan iborat bo'lganligi sababli, ularning har biri o'ziga xos darajaga ega bo'lganligi uchun, ota-onalar yoki ularning vakillari o'z kasbida yoki o'z hunarida usta bo'lgan yoki yaxshiroq nasldan bo'lgan kuyov topish haqida o'ylashlari tabiiy holatdir. Turmushga chiqayotgan qizlar, shubhasiz, umr yo'ldoshi tanlashda juda

⁸⁹ Vend. III. 3.

⁹⁰ Yt. XV. 40.

⁹¹ Vend. III. 24.

⁹² Vend. XIV. 15; XVIII. 54.

⁹³ Loternoning so'zlariga ko'ra, "Rimda bolalarning, ayniqsa qizaloqlarning nikohi qoida edi, chunki qizlarning ko'pchiligi o'n ikki yoshda bo'lgan. Ammo ular ko'pincha unashtirilgan va hatto bu yoshdan oldin turmush qurishgan. Agrippa va Pomponiyaning qizi Vipsaniya Agrippina birinchi yilidanoq Tiberiyga va'da qilingan. Digest yetti yoshida nikoh to'yiga ruxsat bergan. Qizini unashtirayotganda ota fuqarolik majburiyatini oldi, avvaliga zararni undirish, keyin esa sharmandalik bilan tasdiqlandi. (Nikohning evolyutsiyasi, 198-bet.) - "Yosh yunon qizi o'z shaxsini xitoylik yoki hindu ayoli kabi boshqara olmadi. U otasiga uylangan edi". (195-bet.)

sinchkovlikka amal qilishsa-da, ba'zida ota-onalarning hukmiga tayanishi lozim bo'lgan. Uning tanlovi ota-onasi tomonidan tasdiqlanishi kerak edi. Qizning tegishli vasiysi bo'lmagan juda kam uchraydigan istisnoli hollarda, qizlar o'zi uchun tanlov qilgan⁹⁴.

Vendidadning 14-bobida biz nikohni poklanish vositasi sifatida ko'rsatadigan quyidagi parchani uchratamiz:

Kafforat sifatida u (ya'ni zardushtiy) ixlos va taqvo hissi bilan hech bir erkakni sevmagan balog'at yoshidagi singlisi yoki qizi, qulog'ida sirg'ali va o'n besh yoshdan o'tgan bokira qizni taqvodor erkakka (ya'ni kohinga) turmushga beradi⁹⁵. Garchi bunday amr bizni hatto taqvodor qizni taqvodor kohinga turmushga chiqishga ko'ndirish ham poklanish vositasi yoki savobli ish bo'lgan degan e'tiqodning mavjudligini taxmin qilishga olib kelsa-da; ammo bunday nikoh rishtalari zardushtiylik asosiy mafkura bo'lgan davrda iroda erkinligini amalga oshirish asosiy omil bo'lgan jamiyatda kamdan-kam shakllangan bo'lishi kerak⁹⁶.

Ilk zardushtiylik matnlarida ayollarga zurriyotlarni tarbiyalash va uy-ro'zg'or yumushlaridan tashqari ham ijobiy rollar berilganligi ta'kidlangan⁹⁷. Ayni vaqtda, yuqorida muhokama qilingan imkoniyatlardan tashqari, Avesta ayollarning bir qator muhim ijtimoiy lavozim va vazifalarni egallashi hamda yuksak martabalarga erishishi mumkinligini nazarda tutadi. Masalan, Y. 41.2 da

⁹⁴ Manu, S. B. E., jild. XXV., bob. IX. 2-4: "Ayollar kechayu kunduz o'z (oilalari) erkaklari tomonidan qaram bo'lishi kerak va agar ular shahvoniy lazzatlarga berilsa, ular o'zlarining nazorati ostida bo'lishlari kerak. Uning otasi bolaligida, eri yoshligida, o'g'li esa keksaligida himoya qiladi; ayol hech qachon mustaqillikka mos kelmaydi. Qizini o'z vaqtida turmushga bergan otasi tanbeh. (Xotini o'z vaqtida) yaqinlashmagan er va eri vafot etganidan keyin onasini himoya qilmagan o'g'il jazolanadi." (IX. 88-92.) "Ajoyib, chiroyli sovchiga. (Ota) teng (kasta) o'z qizini (to'g'ri yoshga) etmagan bo'lsa ham, belgilangan qoidaga muvofiq berishi kerak. Ammo qiz, garchi turmushga chiqsa ham, uni yaxshi fazilatlarini yo'q odamga berishdan ko'ra, o'lingacha otasining uyida turishi kerak. Qiz turmushga chiqsa ham, uch yil kutib tursin, lekin o'sha vaqtdan keyin u o'zi uchun teng tabaqa va mansabdagi kuyovni tanlasin. Agar turmushga chiqmagan bo'lsa, u o'zi er qidiradi, u hech qanday aybdor bo'lmaydi va u turmush qurgan kishiga aybdor emas. Qiz o'zi uchun tanlagan bo'lsa, otasi, onasi yoki ukalari tomonidan sovg'a qilingan bezaklarni o'zi bilan olib ketmasin; Agar u ularni olib ketsa, bu o'g'irlik bo'ladi.

⁹⁵ Uordning ta'kidlashicha, turmushga chiqmasdan qolish shunchalik sharmandalikki, bir paytlar bir necha Yoshi katta hindu cho'rilari kekxa Kulin Brahminga turmushga chiqishgan, chunki uning do'stlari uni o'lim uchun Gangga olib ketishgan (Video III, bet). 181).

⁹⁶ (Ys. XXX. 1-2)

⁹⁷ Gould K. "Outside the Discipline, Inside the Experience: Women in Zoroastrianism," in Religion and Women, ed. Arvind Sharma, New York, 1994. P. 149.

“Yaxshi hukmdor, erkak yoki ayol (*nā vā nāirī vā*) bizni har ikki mavjudotda ham hukmronlik qilsin” (*huxšakrastū nē nā vā nāirī vā xšaētā ubōiuō a*) duo qilinadi. Ko‘rinib turibdiki, ayollar, erkaklar kabi, moddiy (jismoniy) va ma‘naviy hayotda yetakchi bo‘lish imkoniyatiga ega hisoblanishgan. Ayrim olimlar Y. 46.10 (yuqorida zikr etilgan) ni ham gender tengligini targ‘ib qiluvchi deb ta‘riflagan: bu bandeda Zaratushtra “hisob ko‘prigi”ni (*cinnuatō pārātūm*) kesib o‘tadigan “erkak yoki zodagon ayol” (*vā... on gānā*) ga “haqiqat va yaxshi fikrlar hukmronligi uchun mukofot” (*ašīm ašāi vohū xšašram manāhā*) beradi. M. Shvarts buni homiylikka da‘vat sifatida izohlaydi va Zardusht jamiyatida ayollar homiylik qilish huquqiga ega bo‘lgan, bu ularning katta boylik va mavqega ega bo‘lganligini anglatadi, degan xulosaga keladi⁹⁸. Biroq, ayrim tadqiqotchilar⁹⁹ matndagi mazmuni Zaratushtra o‘zining ayol va erkak tarafdorlari uchun ilohiy (samoviy) mukofotni va‘z qilganiga dalil sifatida ishora qildilar¹⁰⁰.

Avvalo, biz Zaratushtraning Ahura Mazdaga shoh Vishtaspaning rafiqasi, jinsdoshlari orasida eng ulug‘ axloqiy va ma‘naviy madaniyatni targ‘ib qilishda unga yordam berishini so‘rab fazilatli va olijanob, kashshof va da‘vatchi Xutaosa haqiga duo qilayotganini ko‘ramiz¹⁰¹. O‘n uchinchi Yashtda bir-biridan mustaqil tarzda, insoniyatni ma‘naviy va jismoniy axloqsizlikdan qutqarish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari uchun nomlari abadiylashtirilgan ayollar va ularning umr yo‘ldoshlarning sharaflari ro‘yxati keltirilgan. *Hvōvi, Frēni, Thrīti, Pouruchista, Hutaosa, Huma, Zairichi, Vīspataurvashi, Ushtavaiti, Tushnāmaiti, Usenemahning xotini Frēni, Frāyazantaning kelini Frēni, Xshōiwrāspaning kelini Frēni, Gayadhāstitning kelini Frēni, Pourudhākshtining xotini Asabani va Staotar-Vahish-tahē-Ashyēhēning*

⁹⁸ Schwartz M. “Women in the Old Avesta: Social Position and Textual Composition,” Bulletin of the Asia Institute 17, 2007, P. 2.

⁹⁹ Gould K. “Outside the Discipline, Inside the Experience: Women in Zoroastrianism,” in Religion and Women, ed. Arvind Sharma, New York, 1994. P. 145.

¹⁰⁰ Hintze A. A Zoroastrian Liturgy: The Worship in Seven Chapters (Yasna 35-41), Wiesbaden, 2007. P. 197-209.

¹⁰¹ Yt. IX. 26; XVII. 46.; Shuning uchun professor Darmesteter “zardushtiylikning ma‘naviy g‘alabasi ayolning ishi bo‘lib, hech bir ayol surati “Avesto”da chizilganidan olijanob va yuksakroq emas”, deb ta‘kidlaydi.

rafiqasi *Uhhshyeintilar* (139-140) eroniylar tarixida “Ezgu din”ning voizi, targ‘ibotchisi va haqiqiy vatanparvar sifatida solih niyat bilan xizmat qilgan mashhur ayollarning yorqin ismlardir. 148, 149 va 154-bandlarda butun umri davomida insoniyat farovonligi, zardushtiylik maqsad qilgan ma’naviy taraqqiyotning ezgu maqsadi yo‘lida kurashgan o‘sha ayollarning ruhlari olqishlangan. Keyingi pahlaviy risolalarda Spitamaning to‘qqiz qizi eroniy hukmdorlar tomonidan o‘z xalqining ma’naviy yuksalishidagi yordamlarining e’tirofi sifatida qimmatbaho mukofotlar olgani haqida o‘qiymiz.

Eroniylarning eng qadimgi adabiyotlarida mashhur ayollar haqidagi batafsil tasvirlarni deyarli uchratmaymiz; biroq, biz solih, haqiqatparvar, fazilatli ayollar tez-tez ulug‘langan parchalardan ularning mavqe’ini bilib olishimiz mumkin.

Shuning uchun Avesta davridagi ayolning burchlari faqat uy xo‘jaligining iqtisodiy vazifalari bilan chegaralanib qolmagan, balki ular Avesta jamiyatining axloqiy va ma’naviy taraqqiyotiga muhim ta’sir ko‘rsatgan. Uning ta’lim olishi uni nafaqat o‘z farzandlariga, balki o‘z jinsdoshlariga ham axloqiy muallim bo‘lib xizmat qilishiga olib kelgan.

“Qadimgi Vedalar davridagidek, “Avesta” jamiyatida ham ayollar muqaddas marosimlarda, tantanali qurbonliklarda qatnashgan¹⁰². Ezgu fikrlarni qadrlaydigan, Ezgu so‘zlarni aytadigan va Ezgu amallarni bajaradigan, o‘z xo‘jayinlariga itoatkor va bo‘ysunadigan xonadon ayollari Visperedga taqvodor va e’tiqodli erkaklar bilan teng ravishda olqishlangan. Bundan tashqari, aytilishicha, xotin ham, er ham birgalikda qo‘llarini ko‘tarib, Mitrani himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash uchun ibodat qilishadi. Rig-Vedaning quyidagi ajoyib so‘zi ham eroniylar odatiga mos keladi: “Qadim zamonlardan beri xotin umumiy qurbonliklar va bayram yig‘inlarida qatnashib kelgan, u muqaddas qonunni targ‘ib qilgan”.

¹⁰² Qarang: Manu, IX. 96: “Ayollar ona, erkaklar esa ota bo‘lishlari uchun yaratilgan. Shuning uchun Vedalarda diniy marosimlarni er va uning xotini tomonidan birgalikda bajarishi kerakligi belgilab qo‘yilgan.

Deyarli barcha eroniylar uchun umumiy qabul qilingan ushbu fikrni Avestadagi zardushtiy ayolning axloqiy va ma'naviy fazilatlariga ega bo'lish yo'lida eri bilan bahamjihat kurash olib borishi va unga yordam berishda hamkor ekanligi haqidagi havolalar ham tasdiqlanishi mumkin: ... Qayerda tug'ilgan bo'lmasin ashavan er va ashavan ayollarning ruhoniyatini olqishlaymiz. Bu er va ayollar o'z ezgu e'tiqodlari bilan Ashah – Haqiqat saodati uchun g'ayrat ko'rsatdilar, g'ayrat ko'rsatayaptilar va g'ayrat ko'rsatadilar¹⁰³ —“Avesta”da qayerda taqvodor erkaklarga ishora qilinsa, xuddi shunday fe'l-atvorga ega bo'lgan ayollarni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Manbada er va xotinning Yaratganga gunohlarni kechirishini istab qilgan hamjihatlikdagi solih amallari¹⁰⁴, ashavan erkaklar va ashavan ayollar¹⁰⁵, erkak va ayol avliyolar¹⁰⁶ tilga olingani ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. O'n oltinchi Yashtda zardushtiy ayolning Yaratganning Qonunidan bir lahzaga ham chetga chiqmaslik to'g'risidagi astoydil munojoti qayd etilgan. Bu biz uchun ayolning qalbida bu dunyoning moddiy birlashmalari orasida o'zining axloqiy va diniy burchlarini bajarishga qodir bo'lishini chin dildan xohlashini anglatadi. Xuddi shu bo'limda u marosimning “Mutloq Oqil zotga” (*vitkushi vohu-banghem*) ga sig'inishi haqida aytilgan. Yana Yasht 36-da onalik oilasi (ota-onasi) uning oiladagi hurmati buzilmasligini; u eri tomonidan sevilib, hurmatga sazovor bo'lishi va qarindoshlari orasida maqtovga sazovor bo'lishi orzu qilganiga ishora qilingan.

Zardushtiylikda ayollar diniy marosimlar va diniy tashkilotda ham deyarli teng huquqda bo'lishgan. Garchi zardushtiy kohinlar sinfi bugungi kunda asosan erkaklardan iborat bo'lsa-da, Avestadan olingan ma'lumotlarga ko'ra, ayollar ham bir vaqtlar marosimlarni o'tkazishda faol rol o'ynagan. Herbedestanning “kohin” ning umumiy lavozimi bo'lgan *athauruuan*- sifatida ayollarning qo'llanilishi mumkinligi haqidagi bayonoti Nerangestandagi (N.

¹⁰³ Yt. XIII.154.

¹⁰⁴ Y. I., 16; XIV. 1 va boshqalar

¹⁰⁵ Ys. VIII. 3; XVI. 9; LXXI 10

¹⁰⁶ Ys. V. 27; II., LVIII. 5.

22.2 [= N. 40]) “har qanday erkak... yoki ayol, yoki voyaga etmagan bola” (*kahiiāciṭ nā... nāirikaiiāsciṭ aperenāiiūkaheciṭ*) parchasi bilan to‘ldiriladi, bu esa muqaddas matnlarni biladigan, zaotar, ya’ni maxsus libos kiyish uchun mas’ul bo‘lgan ixtisoslashgan kohin sifatida harakatlanishiga oid fikrni yanada tasdiqlaydi.

Yashtlar matnida keltirilgan afsonaviy rivoyatlarda ham ayollarning qurbonlik qilganliklari haqidagi ko‘plab dalillar keltirilgan. Masalan, Xutaosa bir guruh turmushga chiqmagan qizlar (*kainīnō*)¹⁰⁷ kabi Vayuga¹⁰⁸ qurbonlik qilgani qayd etilgan. Shuningdek, Huyuui ma’buda Chistaga qurbonlik qilgani aytiladi¹⁰⁹ va Ahura Mazda Ardvi Sura Anahitaga turmushga chiqmagan qizlar “undan oliyjanob umr yo‘ldoshi” (*jaiḍiiāṅte taxmāmca nmānō.paitīm*) so‘rab marosim o‘tkazishlari uchun yulduzlardan tushishini buyuradi¹¹⁰.

Bundan tashqari, har bir ilohga ibodat uchun xos bo‘lgan marosim tartiblarida ham ayollarning, bir sinf sifatida, qurbonlik marosimlarida ishtirok etishdan chetlashtirilmaganligini aniq ko‘rsatilgan. Misol uchun, Ashiga ibodat qilish tartiblarida buni yaqqol ko‘rish mumkin, Avestaga ko‘ra faqat “nopoklik mavsimidagi [ayollar]” (*para.daxšta*) va “turmush qurmagan qizlar” (*kainina anupaēta mamaṣiiānqm*) uchun qurbonlik qilishni taqiqlaydi¹¹¹. Biroq, matnda tenglikka amal qilish maqsadida, “naslsiz [nasl qoldirish imkoniyatini tugagan, andropauzal] erkaklar” (*narō pairišta.xšudrō*) va “balog‘atga yetmagan o‘g‘il bolalar” (*apərənāiiu tauruna*) ga ham qurbonlik marosimida ishtirok etish taqiqlangan. Xuddi shunday, Tishtriya ham “yovuz erkak” (*mairiō*) va “yovuz ayol” (*jahika*) uchun uning qurbonligidan foydalanishni taqiqlaydi¹¹². Ayni paytda, Arudvi Sura Anahita “ko‘r, kar, pakana, ahmoq” (*andāsca karenāsca*

¹⁰⁷ Yt. 15.39

¹⁰⁸ Yt. 15.35

¹⁰⁹ Yt. 16.15

¹¹⁰ Yt. 5.87

¹¹¹ Yt. 17.54

¹¹² Yt. 8,59

druuāasca mūrāasca) va kabi nogiron ayollarga uning qurbonlik ne'matlaridan iste'mol qilishini taqiqlaydi¹¹³.

Zardushtiylar jamoasi ayollari har ikki jinsga xos bo'lgan umuminsoniy poklik qonunlari (masalan, soch va tirnoqlarni olish va to'g'ri ko'mish) ga rioya qilish bilan bir qatorda, bevosita aynan zardushtiy ayollarga farz qilingan, asosan, nasl va zurriyot bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha qoidalarga ham bo'ysungan. Xususan, hayz paytida ayolni maxsus binoda ajratib qo'yish kerak edi, bu haqda Videvdatning 16.4 bandiga ko'ra bunday ayollar "olovdan o'n besh qadam, suvdan o'n besh qadam, barsmandan o'n besh qadam narida va taqvodor odamlardan uch qadam uzoqda joylashgan bo'lishi kerak edi." (*pañca.dasa.gāim haca āθrat, pañca.dasa.gāim haca apaṭ, pañca.dasa.gāim haca barəsmən frastairiāt, θrigāim haca nərəbiiō ašauuabiiō*). Bundan tashqari, iste'mol uchun unga faqat "eng past qiymatga ega ikkita metall – temir yoki qo'rg'oshindan yasalgan idishdan" foydalanishga ruxsat berilgan (*aiianhaēnem vā srum vā nitama xšathra.vairiia*)¹¹⁴ hamda bunday holatdagi ayollar qat'iy cheklangan parhezga rioya qilishi kerak edi¹¹⁵.

Tanadan chiqarilgan barcha suyuqliklar, ayniqsa, o'lik moddalar harom hisoblanganligi sababli, o'lik dunyoga keltirgan ayol maxsus nopoklik holatida hisoblangan. Videvdat 5.48-56 ga ko'ra bunday hollarda, Mazdayasniylar jamoasi "o'ttiz qadam" (*thrisata.gāim*) masofada "uning uchun to'siq (panjara) qurishi" (*xpairi.daēzqpairi.daēzaiiqn*)ni belgilangan. Bu erda ayol uch kecha qolishi kerak edi, shundan so'ng "u tanasi va kiyimlarini sigir peshobi va suv bilan to'qqizta [mazsus] chuqurda yuvishi kerak edi" (*us tanūm snaiiaēta us Vastrāt gāuš maēsmana apāca nauua upa magəm*). Shundan so'ng, uning jamiyatga qayta kirishib, faoliyat olib borishiga ruxsat berilgunga qadar yana to'qqiz kechalik uzlat talab qilingan. M.Boys bunday cheklovlarni «xo'rovchi»

¹¹³ Yt. 5.93

¹¹⁴ Vd. 16.6

¹¹⁵ Vd. 16.7

marosimlar deb hisoblagan bo'lsa¹¹⁶, J. Choksi keyingi davrlarda ba'zi mazdayasniy ayollarning islomga murojaat qilishiga sabab sifatida ana shu «og'ir marosimlar» va ular bilan birga kelgan “ruhiy iztiroblar” ni keltirib o'tadi¹¹⁷. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, erkaklar ham jinsga xos poklik qonunlariga qat'iy amal qilishi talab qilingan, masalan, uyqudagi jinsiy nopoklik holatlarida, ular ham poklanish marosimlaridan o'tishlari kerak edi¹¹⁸.

Bunday qat'iy qoidalardan tashqari, erkaklar va ayollarga turlicha munosabatda bo'lishni bevosita targ'ib etuvchi Avestadagi yagona parcha Videvdad 7.41-42 da uchraydi, matnda tabib xizmatlari uchun to'lov nazarda tutilgan. Unga ko'ra, tabib: “xonadon boshlig'i” (*nmānahe nmāno.paitīm*) ni “eng past baholi ho'kiz” (*nitamam staorəm*), uning “xotini” (*nmānahe nmāno.paitīm nāirikəm*) ni esa bir “urg'ochi eshak” (*katha daēnu*) bahosiga; “urug' boshlig'i” (*visō vīspaitīm*) ni “o'rtacha baholi ho'kiz” (*madimam staorem*), uning xotinini esa “sigir” (*gauua daēnu*) bahosida; “qabilaning xo'jayini” (*zañtāuš zañtupaitīm*) ni “eng qimmatli ho'kiz” (*agrīm staorem*), uning xotinini esa “ot” (*aspa daēnu*) bahosida; “Viloyat xo'jayini” (*dajhāuš dajhupaitīm*) ni “to'rtta jonivor qo'shilgan arava” (*vāšəm cathru.yuxtəm*), uning xotinini esa “tuya” (*uštra daēnu*) narxida davolashi kerak edi. Garchi bu ro'yxatda xizmat aniq tabaqalashgan (eng kichik qiymatdan eng katta qiymatga o'sish) bo'lsa-da, Vd 7.42 da keltirilgan ma'lumotning mohiyatini aniqlashning iloji yo'q.

Avesta shakllangan davrda Eronda ko'pxotinlilik yoki monogamiya hukmron bo'lganmi degan savolga kelsak, unisi yoki bunisini tasdiqlaydigan ochiq-oydin aniq bir ma'lumot mavjud emas. Ayrim bilvosita havolalardan professor C. de Harlez qisqacha ta'kidlaydi: “Aftidan, u yerda poligamiya

¹¹⁶ Boyce M. A History of Zoroastrianism I, Leiden, 1972. P. 308.

¹¹⁷ Choksy J. Evil Good and Gender. Facets of the Feminine in Zoroastrian Religious History, New York, 2002. Pp. 97-98.

¹¹⁸ Vd. 18.46.

(ko'pxotinlik) mavjud bo'lmagan"¹¹⁹; Doktor Geiger shunday deydi: "Afsuski, "Avesta"da har ikki holatni tasdiqlovchi aniq dalillar yo'q, shuning uchun biz deyarli bilvosita isbot va o'xshash xulosalar bilan kifoyalanishimiz kerak. O'g'illar va xotinlar uyning bezaklari hisoblanadilar va xudolar ularni taqvodorlarga ko'p miqdorda beradilar. Buni ko'pxotinlilik keng tarqalganligi va ko'p sonli ayollar boylik va samoviy ne'mat belgisi sifatida qaralganligining belgisi sifatida ko'rish mumkin.". Bu xulosaga shuni aytishim mumkinki, endi *frapithwo nâirika* iborasining "ayollarning ko'pligi" (Dr. Shpigelning Avestaning nemis tiliga tarjimasida) tarjimasi kabi qabul qilib bo'lmaydi. Ikkinchi so'z nominativ yakkalik ayol bo'lib, yolg'iz ayolga yoki uy bekasiga ishora qiladi. Butun ibora "(qayerda) xotin yaxshi ovqatlangan yoki baxtli bo'lsa" degan ma'noni anglatadi. Agar biz bu iborani "ko'p ayollar yoki xotinlar" degan ma'noni anglatadi desak ham, bu yolg'iz erkakning xotinlarini emas, balki bir uyda yashovchi bir qancha turmush qurgan ayollarni nazarda tutadi. Shu o'rinda bugungi kunda O'rta Osiyoda saqlanib qolgani kabi, oilaviy xo'jalik Avesta davrida shunday bo'lgan deb tasavvur qilishimiz mumkin, qizlari, kelinlari va hatto nevara-kelinlari boshlarida ona oilalari bor, ularning barchasi o'ndan ortiq ayollardan iborat guruhni tashkil qiladi. — Hatto Gohlarda singdirilgan va yuqorida aytib o'tilgan nikoh g'oyalarining o'zi ham bizga juda madaniyatli muhitda gullab-yashnagan xalqlar o'rtasida ko'pxotinlilikning hech qanday izlarini qabul qilishga ruxsat bermaydi¹²⁰.

Jinslararo noqonuniy ishqiy munosabat o'lim bilan jazolanadigan gunoh sifatida qoralangan¹²¹. Yomon (axloqsiz, nopok, yovuz) ayollarning ibodat

¹¹⁹ "Avesto"ning frantsuz tarjimoni de Harlezning nufuziga tayangan holda Ch.Letourneau o'zining "Nikoh evolyutsiyasi" asarida, London, 1891 (150-bet) shunday deydi: - "Qadimgi Fors monarxlarining ko'pxotinliliigi Misr qirollari yoki Peru inkalaridan ko'chirilganga o'xshaydi. Qadimgi zamonlardagi forslarga, ya'ni Avestaning Muqaddas to'plamini tuzgan mazdaviylarga kelsak, agar biz Zend matniga murojaat qilsak, ularda jinsiy axloq juda qattiq bo'lganligini ko'ramiz. Avesta qoidalari fohishalar, vosvos, shahvoniy buzuqlik, homilani nobud qilish va hokazolarni qoralaydi va jazolaydi. Avestaning bizgacha yetib kelgan bu qismida ko'pxotinlilik e'tirof etilmaydi, nikoh to'g'risidagi oyatlarda esa monogamiya ma'nosi mavjud."

¹²⁰ "Agar ayollar erlari ustidan ustunlikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lishgan yoki erkaklarning altruistik tuyg'ulari ularni o'zidan zaifroqlarning his-tuyg'ularini hurmat qilishga olib keladigan darajada tozalangan bo'lsa, monogamiya odatda nikohning yagona to'g'ri shakli hisoblanadi" (Wester., 500-bet.).

¹²¹ Vend. XVIII, 62-65.

qilishi nojoiz hisoblangan¹²². 17-Yashtning 57-bandida, yuqorida qayd etilgan ayollarga nisbatan “Uning yonida turma, uning yonida o‘tirma” qabilidagi hukmlar qayd etilgan. Go‘daklarni nobud qilish qat’iyan man etilgan¹²³. Noqonuniy nikoh natijasi bo‘lgan homilani giyohvand moddalar yordamida yo‘q qilish qasddan qotillik hisoblangan va qonunga ko‘ra, o‘lim bilan jazolangan. Gunohkor ayol, uning sevgilisi va giyohvand moddalarning yetkazib beruvchisi bolani nobud qilishda teng darajada aybdor deb hisoblangan. Noqonuniy nikohdan dunyoga kelgan bola yetti yoshga to‘lgunga qadar gunohkor erkak hisobidan parvarishlanishi va o‘qitilishi kerak bo‘lgan¹²⁴. Jodugarlar la’natlangan maxluq deb bilingan. Eringa bo‘ysunmaslik sharmandali jinoyat deb e’lon qilingan. Yotgan holatida salomatlikni saqlamaslik ham gunohdir¹²⁵. Keyinchalik yaratilgan pahlaviy kitoblarda, agar ona bolani emiza olmasa yoki uni toza suti bilan boqmasa, yoki erining molini o‘g‘irlasa yoki hukmdoriga bo‘ysunmasa do‘zaxga eltuvchi gunoh qilgan deb qaralgan¹²⁶. Agar er xotiniga nasihat qilmasa va uni gunoh ishlardan saqlamasa, bu sharmandalikdir¹²⁷.

¹²² Yt. XVII, 54.

¹²³ Vend. XV. 11-14; Yt. XXV. 29.

¹²⁴ Vend. XV.45.

¹²⁵ Vend. VII va boshqalar.

¹²⁶ Manu, IX. 13 :-“Spirtli ichimliklar ichish, fosiqlar bilan muloqot qilish, erdan ajralish, chet elda sarson-sargardon bo‘lish, bemahal uxlash va boshqa erkaklarning uyida yashash ayollarning halokatiga sabab bo‘ladigan oltita sababdir.

¹²⁷ Arda-Viraf- namag, 87, 63, 99, 68-boblar.

III- BOB. O‘RTA OSIYONING O‘RTA ASRLAR DAVRIDAGI ZARDUSHTIY JAMOALARIDA AYOLLARGA MUNOSABAT VA GENDER MASALASI

III.1. Zardushtiylk jamoalarida ayollarning oila va nikoh bilan bog‘liq huquqlari

Zardushtiylk jamoalarida oila huquqi fuqarolik huquqlarining eng keng qamrovli va murakkab bo‘limi bo‘lib, o‘rta fors tilining saqlanib qolgan bir nechta huquqiy matnlarida, xususan, “*Mādayān ī hazār dādestān*” deb nomlangan sosoniyl qonunlar to‘plamida bayon etilgan. U asosan liberal huquqshunoslar va nufuzli ulamolar (*dastvarān*, *wēhān* “donishmandlar”) tomonidan qabul qilingan tuzatishlar (*dādestān*) dan iborat mo‘tadil qonunchilik (*kardag*) majmuasidir; bunday qayta ko‘rib chiqishlar doimiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan va bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan diniyl huquqshunoslik (fiqh) maktablarining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Ushbu munozaralar ayollar, voyaga yetmaganlar va oz bo‘lsa-da qullarning ijtimoiyl mavqeini yaxshilashga qaratilgan munosib harakatdir.

Sosoniylar davridagi zardushtiylk ijtimoiyl tashkilotining asosiy xususiyati patriarxal qarindoshlik oila (*dūdag*, *kadag*) bo‘lib, unda xonadon egasi (*kadag-xwadāy* “xonadon otasi”, *pid(ar)* “ota”, *šōy* (sho‘y) “er”) bo‘lgan, xotini (*kadag-bānug* “xonadon onasi”, *mād(ar)* “ona”, *zan* “xotin”) tomonidan xizmatga yuborilgan. Oila a‘zolari, odatda, katta oila bo‘lib, ular qarindoshlik (*nabānazdišt*, *hamnāf* “qarindosh”, *xwēšāwand*, *paywand* “qarindosh, tug‘ishgan”, *kas* “shaxs”, ayrim matnlarda “qarindosh” ham bo‘lgan.) yoki yaqinlik yo‘li bilan, nikoh, farzandlikka olish yoki *stūrīh* (vakil orqali nikoh) orqali yuqori darajada rivojlangan huquqiy ko‘rsatmalar, shuningdek, qat‘iy axloq majmuasi va mustahkam me‘yorlar to‘plami bilan bog‘langan. Hatto xo‘jayin va qul o‘rtasidagi munosabatlar o‘rnatilgan qoidalar va cheklovlar (*ēwēn ī šahr* “mahalliy odat”) va patriarxal an‘analar bilan nazorat qilingan.

Zardushtiylikda mohiyatan ikki xil nikoh (*zaniy*) mavjud bo‘lgan: *pādixšāyīhā* (“ruxsat bilan, ruxsat berilgan”) va *stūrīh*, ularning har biri bir nechta kichik farq va xilma-xil shakllardan iborat. Biroq, arablar bosqinidan so‘ng, zardushtiylar jamoasi kamayib, an’anaviy huquqshunoslik maktablarini zaiflashishi va hatto ayrimlarining mutlaqo yo‘qolishi oqibatida o‘rta fors terminologiyasining asta-sekin chalkashishi va o‘zgartirilishi natijasida “Forsiy Rivoyatlar” da nikohning besh turi e’tirof etilgan¹²⁸.

Ruxsat etilgan nikoh. Vakolatli nikoh (*zanīh ī zan pādixšāyīhā* “vakolatli holatda bo‘lgan ayolning nikohi”¹²⁹) er va xotinning qonuniy ittifoqi hisoblangan; u “qonuniy” nikoh, islomiy yoki nasroniy nikohning o‘xshashi sifatida talqin qilinishi mumkin. Oila a’zolari *šōy* “er”, *zan* “xotin”, *pus* “o‘g‘il” va *duxt* “qiz” *ī pādixšāyīhā* deb atalgan. Bu tur kelinning otasi yoki vasiysining ruxsatini, shuningdek, batafsil nikohni talab qiladi. Shartnoma (*paymān ī zanīh*¹³⁰), ulardan bir namunasi islom davridan saqlanib qolgan. *Pādixšāyīhā*da nafaqat vasiyning roziligi, balki kelinning roziligi ham muhim edi¹³¹. Yigitlarga kelinlarining qo‘llarini o‘zlari so‘rashni maslahat bergan (*xweštan rāy zan xwad xwāh*¹³²), shundan kelib chiqadiki, Sosoniylar davrida nikohlar odatda ota-onalar yoki o‘g‘illar tomonidan uyushtirilgan. O‘g‘liga xotin izlash va qizini turmushga uzatish otaning burchi edi¹³³.

Mobed (hakim, qozi, sudya) huzuriga ikki ota, kelin (*wayōg*) va kuyov (*dāmād*), shuningdek, shaxsi qayd etilgan uchta guvoh (*gugāy*) da’vat etilgan. Nikohga tuzilgach, kuyov uy xo‘jayini, kelin esa tegishli huquq va majburiyatlarga ega uy bekasi maqomiga ega bo‘lgan¹³⁴.

¹²⁸ The Persian rivayats on Hormazyar Framarz and others. Translator Ervad Bamanji Nusserwanji Dhabhar, M.A. vol. I. P’l’Blished by the K. R. Cama Oriental Institute. Bombay. 1932. P. 180-181.

¹²⁹ *Mādayān ī Hazar Dādīstān*. The Book of A Thousand Judgements; A Sasanian Law Book. Introduction, transcription and translation of the Pahlavi text, notes, glossary and indexes by Anahit Perikhanian; translated from Russian by Nina Garsoian. Mazda Publishers. 1980. pt. 1, p. 36.

¹³⁰ Pahlavi Texts II. Edited by The late Dastur Jamaspji Minochehrji Jamasp-Asana, SBE 18, Oxford, 1882; repr. Delhi, 1970. P. 141-143.

¹³¹ *Mādayān ī Hazar Dādīstān*.... pt. 1, p. 36.

¹³² *Dēnkard*. Edited by Peshotan Dastur Behramjee Sanjana, 1900. Text in Madan, pp. 409 ff.

¹³³ *Dēnkard*, ed. Madan, II, p. 744

¹³⁴ *Dēnkard*, ed. Madan, II, p. 739

Kelin uchun ikki ming dirham “garov” (*pāyandanīh*) olish qadimiy odatiga amal qilingan, bu nikoh sepi uchun o‘ziga xos mukofot sifatida talqin etilgan. Taxmin qilish mumkinki, yuqori tabaqalar orasida nikoh ulushi bu an’anaviy miqdor bilan cheklanib qolmay, balki kelinning oilasiga boy sep (**passāzagān*) evaziga berilgan ko‘char yoki ko‘chmas mulkni ham o‘z ichiga olgan. Bunday bitimlar oiladan mol-mulkning chiqib ketishining oldini olish uchun qarindoshlar bilan turmush qurishni afzal ko‘rishning asosiy sababi bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Darhaqiqat, sodomiyadan tashqari barcha og‘ir gunohlarning oldini olish yo‘li hisoblangan nikohning eng sharaflı turi¹³⁵ zamonaviy Parsiylar “qarindoshlar ittifoqi” (*xwēdōdah*, Av. *xvāētvadatha*-¹³⁶) deb atagan, Denkardda “ota va qiz, o‘g‘il va ona, aka va singil” (*hampaywandīh ī hast pid ud duxt, ud pus ud burdār, ud brād ud xwah*) orasidagi nikoh sifatida tasvirlangan¹³⁷. Yasna (12.9) matnlaridayoq muqaddas *xvāētvadatha* olqishlangan. Ko‘plab xalqlar orasida dastlab asosan zodagonlar orasida amalda bo‘lgan qarindosh-urug‘lar nikohi keyinchalik eroniy jamiyatining ham yuqori va ham quyi qatlamlarida keng tarqalgan. Ko‘pgina Fors hukmdorlari o‘z opa-singillari yoki qizlari bilan nikoh tuzishgan (*khvāētvadatha*¹³⁸) va Lidiyalik Ksanf xabar berganidek maglar onasi va qizi bilan nikohda yashagan¹³⁹. Sosoniylar davrida kohinlardan biri Arda Viraz yetti singlisining barchasini xotinlikka oldi¹⁴⁰. Oddiy odamlar o‘rtasida yaqin qarindoshlarning nikohi ko‘pgina o‘rta forsiy tilidagi qonun to‘plamlarida, ayniqsa “*Rivāyat ī Ēmēd*”da ko‘rib chiqiladi¹⁴¹.

¹³⁵ Rivāyat ī Ēmēd ī Ašawahištān, ed. B. T. Anklesaria, Bombay, 1962. Chapter 29.

¹³⁶ Nyberg, Manual II, p. 224

¹³⁷ Dēnkard, ed. Madan, I, p. 73

¹³⁸ Boyce M. Zoroastrians. Vol. I. Their Religious Beliefs and Practices, London, 1979; rev. repr. London, 1983. p. 254, n. 24, II, 75-77;

¹³⁹ Jackson A. V. W. Zoroaster, the Prophet of Ancient Iran, New York, 1899; repr. New York, 1965. P. 152-157.

¹⁴⁰ Ardā Wīrāz Nāmag, tr. P. Gignoux as Le livre d’Ardā Wīrāz, Paris, 1984. Chapter II.

¹⁴¹ Rivāyat ī Ēmēd ī Ašawahištān, ed. B. T. Anklesaria, Bombay, 1962. chaps. 22, 24, 27-30; J. P. de Menasce, Feux et fondations pieuses dans le droit sassanide, Paris, 1964. pp. 138-44; Shaki M. “The Sasanian Matrimonial Relations,” Archív Orientální 39, 1971, pp. 335-336.

Pādixšāyihā nikohi vaqtinchalik, o‘zaro kelishilgan davr uchun ham bo‘lishi mumkin va shuning uchun hamrohlik nikohi shakli sifatida xizmat qilgan. Belgilangan muddat tugagach, xotinning mahri va shaxsiy buyumlari (*wāspuhragān*) unga qaytariladi, lekin agar u vafot etgan bo‘lsa, uning mulki eriga tegishli bo‘lgan¹⁴².

Tartiblashtirilmagan nikohlar. Vakolatli (ruxsat etilgan) nikohlardan farqli o‘laroq, bir nechta tartibga solinmagan nikoh shakllari ham mavjud bo‘lgan, ularning asosiy umumiy xususiyatlaridan biri kelinning otasining roziligini talab qilinmasligi edi (qarang. Hindistondagi. *svayamvara*, “mustaqil tanlov”). *Frahang ī Oīm*da *xwarāyēn* (“o‘z-o‘zini qo‘riqlovchi”) qisqacha “mustaqil o‘zi turmushga chiqadigan qiz” (*duxt-ē kē šōy xwad kunēd*, *xʷad-rāy* yoki *xʷad-sālār* so‘zlariga mos keladi)¹⁴³. “*Rivāyat ī Ēmēd*” ning 43-bobida bunday qochoq qizning huquqiy va ijtimoiy mavqei haqida batafsil yoritilgan: “*Xwarayēn* noto‘g‘ri birlashma (*jud āyōzišn* “[ruxsatsiz] ittifoq”) deb izohlanadi. Erkakning balog‘atga yetgan (ya’ni turmushga chiqa oladigan) qizi bo‘lsa va otasi uni uyda saqlaganlikda aybdor bo‘lsa (ya’ni uni turmushga bermasa) qiz bu mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan holda, otaning ruxsatisiz o‘ziga vasiy tanlan, unga turmushga chiqishi mumkin hisoblangan. U ayolni *xwarāyēn* deyishadi”¹⁴⁴. Sosoniylarning bizga qadar yetib kelmagan mo‘‘tadil qonunlari to‘plami – “*Dādestan-namag*”da bunday nikohning haqiqiyliigi tan olinmagan; boshqa tomondan, “Bir huquqga ko‘ra, ushbu fuqarolik huquqi qonuniy deb hisoblagan, ammo an’anaviy qonunchilik buni ma’qullamagan” (*būd kē guft dādestān dahišn*, *bē pad kardag nē dārēnd*)¹⁴⁵.

Nikohning yana bir tartibsiz turi ikki marta “*Mādayān*” va “*Rivāyat ī Ēmēd*”da buzilgan shaklda uchraydigan “*bēastān*” atamasi bilan bog‘liq bo‘lib, unga to‘rt xil ta’rif berilgan bo‘lib, ularning barchasi qizning otalik uyini tark

¹⁴² *Mādayān*, pt. 2, p. 2

¹⁴³ The Persian rivayats on Hormazyar Framarz and others. Translator Ervad Bamanji Nusserwanji Dhabhar, M.A. vol. I. I’l’Blished by the K. R. Cama Oriental Institute. Bombay. 1932. P. 180-181.

¹⁴⁴ Shaki M. “The Sasanian Matrimonial Relations,” *Archív Orientální* 39, 1971, pp. 343-344; Shaki M. “Pahlavica,” in *A Green Leaf: Papers in Honour of Prof. J. Asmussen*, *Acta Iranica* 28, Leiden, 1988, pp. 96-99.

¹⁴⁵ *Mādayān*, pt. 1, p. 36

etishi g‘oyasini o‘zida mujassam etgan¹⁴⁶. Shunday qilib, bu so‘zni “uydan tashqarida” deb o‘qish mumkin. Mādayānda *bēastān* uchun *xwarayēnga* nisbatan ko‘proq hurmat ko‘rsatilishi shuni ko‘rsatadiki, birinchi holatda qiz balog‘atga yetganida, o‘zi tanlagan erkakka turmushga chiqish uchun otasining nomzodini shunchaki rad etgan¹⁴⁷.

Haqiqatan ham kanizaklikka ko‘nib yashashga rozi bo‘lgan o‘ziga xos misol, o‘ziga to‘shakka yo‘ldosh (*gādār* “zinokor”) olib, vasiyligi ostida u bilan birga yashagan beva ayoldir; agar oilada voyaga yetmaganlar yoki boshqa ayollar bo‘lsa, unga vasiy tayinlanmagan, faqat voyaga yetmaganlar va uydagi boshqa kishilar uchun vasiy tayinlanmagan bo‘lardi¹⁴⁸. Bunday birga yashashga intilayotgan ayolning vasiysiz bo‘lishi va *stūrīh* majburiyatidan ozod bo‘lishi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi, lekin to‘shakda hamrohining o‘zini va bolalarini balog‘atga yetgunga qadar boqishga majburiyatini olgan¹⁴⁹.

Jamiyatning huquqiy me‘yorlarini aks ettiruvchi o‘rta fors qonunchiligi majmualarida ko‘p xotinelik amaliyotiga oid ma‘lumotlar kamdan-kam hollarda ucharasa-da, qo‘shxotinelik aslzodalar va din rahnamolarning qadimiy imtiyozi bo‘lgani¹⁵⁰, leksiologik ma‘lumotlar bilan tasdiqlangan (Avestada *hapaθnī* “qo‘shimcha xotin (ikkinchi xotin)”; *Frahang ī Oīm*; qadimgi forsiyda. **hapašnī* > o‘rta forsiyda *hambašn*¹⁵¹; yangi forsiyda *āmvasnī*, *vasnī*¹⁵²; o‘rta forsiyda *abōg* > zamonaviy forsiyda *havū* “qo‘sh xotin ”¹⁵³. Boylik va qadr-qimmatning aksi sifatida xotinlar soni erning mavqei bilan ortib borgan. Xusrav II (590-628, tanaffus bilan) haramida malikalari va qonuniy xotinlaridan tashqari

¹⁴⁶ Rivāyat ī Ēmēd ī Ašawahištān, ed. B. T. Anklesaria, Bombay, 1962. Chapter 30.

¹⁴⁷ Mādayān, pt. 1, p. 21,36, 40; Shaki M. “The Sasanian Matrimonial Relations,” Archív Orientální 39, 1971, pp. 335.

¹⁴⁸ Mādayān, pt. 1, p. 14; Rivāyat ī Ēmēd ī Ašawahištān, ed. B. T. Anklesaria, Bombay, 1962. Chapter 5.

¹⁴⁹ Mādayān, pt. 1, p. 36.

¹⁵⁰ Mādayān, pt. 2, p. 1; “Letter of Tansar,” ed. ‘A.-A. Dehqodā, in *Amṭāl o ḥekam III*, Tehran, 1310 Š./1931, pp. 1630;

¹⁵¹ The selections of Zadspram (*Vizīdagīhā ī Zādspram*). Translated by E. W. West, from Sacred Books of the East, volumes 5, 46, and 37. Oxford University Press, 1880, 1897, and 1892. pp. 143, 163.

¹⁵² M. Mo‘īn, *Farhang-e fārsī*, 6 vols., Tehran, 1342-52 Š./1963-73. I, P. 62; II, p. 2283

¹⁵³ Henning W. B. Sogdica, London, 1940.p. 18.

o‘n ming kanizaklari bo‘lganligi aytiladi (*shabestān*)¹⁵⁴. Qadimgi eroniylar xalq sifatida endogam bo‘lgan bo‘lsa-da, ba’zi monarxlar zardushtiy bo‘lmagan xorijiy ayollarga uylanishgan. Parfiya qiroli Fraates IV (taxminan miloddan avvalgi 40-3/2) italiyalik cho‘ri Thesmoussa, Yazdegerd I (399-420) yahudiy Soshanduht va Xosrov II Vizantiya malikasi Mariya va arman *Shīrēng*a uylangani ma’lum.

Ishonch bildirilgan (Ishonchnoma berilgan) *nikoh*. Zardushtiylikda nikohning ikkinchi turi sifatida e’tirof etilgan – *stūrīh* (Avestada: *stūiriia*-;) ¹⁵⁵, Ibn Muqaffa’ tomonidan arab tiliga badal (o‘rmini bosuvchi; “Tansor maktubi”¹⁵⁶, 1630-bet) deb tarjima qilingan). Bu Mussoviy (yahudiy) larning levirat nikohiga o‘xshash nikoh turidir (*ybmwt*), bu parsalar tomonidan batafsil ta’riflanmagan va shuning uchun ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan “qabul qilish”¹⁵⁷, masalan Kristian Bartolome tomonidan “g‘amxo‘rlik, homiylik, vasiylik” deb talqin qilingan¹⁵⁸. Bu atamaning kelib chiqishi mavhum bo‘lib, turli xil o‘ziga xos ma’nolarni ifodalaydikim, ularni farqlash yoki anglash alohida yondashuvni talab etadi. Umuman olganda, bu so‘z “vasiylik, kimningdir yoki biror narsaning sababini himoya qilish”ni bildiradi (*u-æān ēn-iz aōn dāšt ku myazd stūrīh ī yazdān, ud ātaxšrūdūdčdān, ud ātaxšrūdūst, gāhānbār stūrīh ī dēn*)¹⁵⁹ “Va ular myazd marosimi xudolarni himoya qiladi va Varahrān (Wahrām) olovi Gayōmardni [sababini] himoya qiladi va gāhānbār bayramlari din [sababi] ni himoya qilishi kerak, deb ishonishdi;¹⁶⁰). Olov (chiroq)ga nisbatan uni “vasiylik” deb aytish mumkin (*ka ātaxš pad stūrīh nišānēd* “agar kimdir vasiylik chirog‘ini yoqsa”, ya’ni vasiylarning keyingi

¹⁵⁴ Xosrow ud Rēdag, tr. D. Monshī-Zādeh, in Monumentum Georg Morgenstierne II, Acta Iranica 22, 1982, pp. 84.

¹⁵⁵ The Pahlavi Rivāyat of Āturfarnbag and Franbag-Sroš, ed. B. T. Anklesaria, 2 vols., Bombay, 1969. P. 27.

¹⁵⁶ “Letter of Tansar,” ed. ‘A.-A. Dehḡodā, in Amṡāl o ḡekam III, Tehran, 1310 Š./1931, pp. 1621-40; ed. M. Minovi, Tehran, 1311 Š./1932, repr. Tehran, 1354 Š./1975; tr. M. Boyce as The Letter of Tansar, Rome, 1968. P. 1630.

¹⁵⁷ West E. W. Pahlavi Texts II, SBE 18, Oxford, 1882; repr. Delhi, 1970. P. 188-189.

¹⁵⁸ C. Bartholomae, Die Frau im sassanidischen Recht. Mittliranische Studien IV, WZKM 27, 1913, p. 48.

¹⁵⁹ Dēnkard, ed. Madan, II, p. 537.

¹⁶⁰ Shaki M. “The Sasanian Matrimonial Relations,” Archív Orientální 39, 1971, p. 325.

avlodlari tomonidan saqlanishi kerak¹⁶¹). “O‘rnini bosuvchi, vakil” ma’nosida (Dēnkard, tahrir Madan, I qism. 407-bet: *ud hamistīhā kard pad weh-dēn nimūdārīh ēn ī nāmēnīd pad stūrīh mānāgīh ī az ān wuzurg bun dēnkard hazār-darag* “va men [Ādurbād ī Ēmēdān] “Ming bobli Dēnkard” deb nomlangan ushbu kitobni ezgu din ahlining hidoyati uchun o‘sha buyuk asl Dankardning o‘rnini bosuvchi sifatida tuzdim”) zardushtiylik qonun chiqaruvchilari tomonidan vakillik orqali turmush qurish uchun qo‘llanilgan. “Tansarning maktubi”da juda aniq aytilgan: “Erkak farzandsiz vafot etsa, uning bevasi, agar qoldirgan bo‘lsa, eng yaqin qarindoshlaridan biriga nikohlab berilgan. Agar uning xotini bo‘lmasa-yu, lekin qizi bo‘lsa ham xuddi shunday qilingan. Agar bu ikkisi ham bo‘lmasa, marhumning molidan olingan haq evaziga bir ayolni yollab, uni yaqin qarindoshlariga berib, tug‘ilgan har bir o‘g‘ilni meros qoldirgan erkakka voris tayinlagan bo‘lardilar». Muallif “Bu odatga e’tibor bermagan har bir kishi, aslida, son-sanoqsiz ruhlarni o‘ldirgan hisoblangan, chunki u o‘lgan odamning nasl-nasabini va xotirasini abadiy uzib qo‘ygan kishidir”, deb izoh bergan¹⁶². Bu haqdagi batafsil ma’lumotlar “*Dadistān ī dēnīg*”da keltirilgan: “Agar solih dindor kishi hech qanday vorissiz vafot etsa, uning ruhi (*nāmagānīh*) ni xotirlash marosimlariga rioya qilish, nasl-nasabini saqlab qolish va mulkini boshqarish uchun (*pad ān ī ōy nāmagānīh ud paywand rāyēnēd ud xwāstag dārēd*, so‘zlarning joylashuv tartibi o‘zgargan) marhumning qarindoshlari uning o‘rnini bosuvchi kishi (*guhārīg*) ni topishlari kerak, uni *stūr* deb atashadi”¹⁶³. Naslning davomiyligi masalasida o‘g‘il voris bo‘lishi diniy zarurat bo‘lgan (qizlar nasl-nasabning qonuniy vorisi hisoblanmagan), chunki o‘g‘li bo‘lmagan odam boqiy dunyoga ko‘prikdan o‘ta olmas edi)¹⁶⁴. *Stūrīh*

¹⁶¹ Mādayān, pt. 1, p. 50.

¹⁶² “Letter of Tansar,” ed. ‘A.-A. Dehḡodā, in *Amṡāl o ḡekam III*, Tehran, 1310 Š./1931, pp. 1621-40; ed. M. Minovi, Tehran, 1311 Š./1932, repr. Tehran, 1354 Š./1975; tr. M. Boyce as *The Letter of Tansar*, Rome, 1968. P. 1630.

¹⁶³ *Dādīstān ī dēnīg*, ed. A. Christensen, *Codices Avestici et Pahlavici Bibliothecae Universitatis Hafniensis* 3, pt. 1, Copenhagen, 1934. Chapter 55.

¹⁶⁴ Shaki M. “The Sasanian Matrimonial Relations,” *Archív Orientální* 39, 1971, p. 326.

diniy majburiyat edi (*paywand ī frašgerd*)¹⁶⁵, chunki u Ormazdning yordamchilari bo‘lgan Veh-dēnlarga dunyoning tiklanishiga erishishda yordam beradi deb ishonilgan.

Nikohning bu turida oilaga er, xotin, o‘g‘il va qiz (*shōy, zan, pus, duxt ī sūr*) kirgan. Avestaga ko‘ra, o‘sha paytda mavjud bo‘lgan¹⁶⁶, qisman erkin qulning (barda va barbadārī) yoki hali *stūr* bo‘lib xizmat qilmagan vakolatli xotin, *stūrīh* olish huquqiga ega edi; vakolatli xotinga birinchi navbatda o‘z shaxsi ustidan erkinlik berilishi va eri tomonidan uning vasiylikka olinishi kerak edi¹⁶⁷. Vafot etgan eri uchun *stūrīh* qilgan beva ayol *čakar* deb atalgan. Biroq, bu tartibni nufuzli diniy arboblari nazorat qilishi kerak, deb hisoblaydigan huquqshunoslar ham bo‘lgan (*ka dastwarān abarmad kard*)¹⁶⁸. Odatiy qonuniy nikohdan farqli o‘laroq, bu turdagi er-xotinlar birgalikda yashash, erning xotin ustidan vasiyligi va xotinning eriga bo‘ysunishi (*tarsāgāhīh* “hurmati”)dan boshqa rishtalar yoki majburiyatlar bilan bog‘lanmagan. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, *stūrīh* Rimdagi *matrimonium sine manuga* o‘xshamaydi, unda xotin jinsiy aloqada erkin bo‘lgan¹⁶⁹.

Stūrīh, shuningdek, qonuniy xotin, o‘g‘il vorisi (*frazand*), asrab olingan o‘g‘il (*pus ī padīgriftag*) yoki qondosh aka-uka (*brād ī hambāy*) qoldirmagan va eng kamida 60 *stēr* miqdoridagi daromadli (*barōmand*) mulkini qoldirgan har qanday vafot etgan ozod zardushtiylar uchun ham amal qilishi shart bo‘lgan¹⁷⁰. Sosoniylar davri tabaqaviy tizimida *stūr* va marhum bir xil ijtimoiy tabaqa, boylik va mavqega mansub bo‘lishi kerak edi. «Tansar maktubi»da¹⁷¹

¹⁶⁵ Dēnkard, ed. Madan, I, p. 168; II, p. 492

¹⁶⁶ Dēnkard, ed. Madan, I, p. 43.

¹⁶⁷ Mādayān ī Hazar Dādīstān. pt. I, p. 3.

¹⁶⁸ Mādayān, pt. 1, p. 49.

¹⁶⁹ Perikhanian A. “Iranian Society and Law,” in Camb. Hist. Iran III/2, P. 355.

¹⁷⁰ Dādīstān ī dēnīg, ed. A. Christensen, Codices Avestici et Pahlavici Bibliothecae Universitatis Hafniensis 3, pt. 1, Copenhagen, 1934. Chapter 55.

¹⁷¹ “Letter of Tansar,” ed. ‘A.-A. Dehḡodā, in Amṡāl o ḡekam III, Tehran, 1310 Š./1931, pp. 1621-40; ed. M. Minovi, Tehran, 1311 Š./1932, repr. Tehran, 1354 Š./1975; tr. M. Boyce as The Letter of Tansar, Rome, 1968. P. 1630.

yoziilishicha, shahzodalarning vakili shahzodalar bo‘lishi kerak edi¹⁷². *Stūrīh*ning maqsadi marhumning o‘rniga o‘rinbosar bo‘lishi uchun kamida bitta o‘g‘il farzand ko‘rish bo‘lganligi sababli nikohni muddatidan oldin buzish og‘ir gunoh hisoblangan (*tanāpuhl*)¹⁷³. O‘g‘il farzand tug‘ilgandan so‘ng, vasiylik saqlanib qolgan holda *stūr* nikohi bekor etilishi mumkin bo‘lgan¹⁷⁴, chunki, *stūr* nikohidagi juftlik ta‘rifiga ko‘ra ajrashgan holda yashagan (*pad xwad ēstīšnīh abēzār*)¹⁷⁵. *Stūrīh* uchun belgilangan muddat berilgandagina bu holat istisno qilingan¹⁷⁶. *Stūrīh* faqat bir kishi, marhumning bevasi, opasi, qizi yoki ukasi bilan chegaralanmagan; To‘g‘rirog‘i, o‘lgan yolg‘iz kishi uchun *stūrīh*da nikohning ikkala tomoni ham, hatto bir necha juftlik ham qatnashishi mumkin edi¹⁷⁷. Parslar amaliyoti farqli o‘laroq, nafaqat birinchi o‘g‘il, balki vakillik nikohidan tug‘ilgan barcha bolalar marhumga mansub hisblanjan¹⁷⁸; birinchi o‘g‘li voyaga yetganida u oilaning vasiyiligiga o‘tgan¹⁷⁹.

“Mādayān”da *stūr*ning *margarzānih* (lit., “o‘limga loyiq” gunoh; *tanāpuhl*) dan begunoh bo‘lishi kerakligi haqida qisqacha bayon qilingan¹⁸⁰. Xususan, IX asr manbalarida nisbatan batafsilroq ma‘lumot berilgan. *Dādestān ī dēnīg* ga ko‘ra, *stūr* har qanday voyaga yetgan (*puṛnāy*) zardushtiy (*beh-dēn*) bo‘lishi mumkin, ular aqli raso (*ošyār*), mardona yoki sermahsul (*frazand-ēmēdag*), eroniy (*shāhānshāh-bandag*) bo‘lishi lozim, va *margarzān* gunohdan xoli bo‘lishi shart¹⁸¹. Cho‘ri ayol (*bandag paristār*), amaldor (*šābistan*), fohisha (*zan ī rōspīg*), eroniy bo‘lmagan (*anēr*), kofir (*ag-dēn*) yoki *margarzān* *stūrīh*ga

¹⁷² Mādayān, pt. II, p. 14; Shaki M. “The Translation of the Sasanian Law-Book: A Pons Asinorum,” in *Archiv Orientalní* 55, 1987, p. 192.

¹⁷³ Pahlavi Rivayats, ed. Dhabhar, P.122-23.

¹⁷⁴ Mādayān, pt. I, p. 48;

